

POSTDA

Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

КУРАШ МАЙДОНИДАН МАРДЛАРЧА ЎТИБ...



...Акаси Саидазимнинг Тошкент давлат университети юридик факультетига ўқишга қабул қилиниши Саидмахмуднинг кўнглига орзу куртагини солди. 1978 йилда, мактабни тамомлаганидан сўнг икки йил Германияда ҳарбий хизматдан тобланиб қайтгач, Олий милиция мактабига ўқишга кирди. Тўрт йил давомида тергов сирларини пухта ўзлаштирди. Гулистон шаҳар ИИБ Тергов гуруҳи терговчиси лавозимида иш бошлаган Саидмахмуд Хўжаназаровга моҳир терговчилар – майорлар Ўрол Умматқулов ва Миновар Каримов мураббийлик қилди.

Ўзбекистон ҳафта ичида

ТАШҚИ СИЁСАТ ФАОЛИЯТИ КОНЦЕПЦИЯСИ ЯНГИЛАНАДИ

Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсат фаолияти концепциясини янгилаб, унинг устувор йўналишларини қайта кўриб чиқиш, миллий манфаатларни ҳимоя қилиш ва халқаро майдонда мамлакатимизнинг ўрнини мустаҳкамлашга қаратилган аниқ вазифаларни белгилаб олиш зарур. Бу ҳақда ўтган ҳафта Шавкат Мирзиёев раислигида ўтган Ташқи ишлар вазирлиги ва хориждаги дипломатик ваколатхоналар фаолияти юзасидан видеоселектор йиғилишида айтиб ўтилди ҳамда аниқ вазифаларни белгилаб олиш зарурлиги таъкидланди.

Шунингдек, Ўзбекистоннинг 2027–2029 йилларда Қўшилмаслик ҳаракатига раислик қилиши тўғрисида ҳам айтиб ўтилди.

Маълумот учун, Қўшилмаслик ҳаракати – йирик ҳарбий-сиёсий блокларда қатнашмасликни ва ўз мустақил ташқи сиёсатини юритишни асосий мақсад қилган давлатларни бирлаштирувчи халқаро ташкилотдир. Ўзбекистон ушбу ташкилотга 1992 йилда аъзо бўлган. Ҳозирда ташкилотга Уганда раислик қилмоқда.

ЙИЛЛИК ТУРИСТЛАР ОҚИМИ 20 МИЛЛИОНГА ЕТКАЗИЛАДИ

2030 йилгача Ўзбекистонга келадиган йиллик туристлар оқимини икки карра ошириб, 20 миллионга етказиш режа қилинган. Ўтган йили Ўзбекистонга келган сайёҳларнинг сони кескин ўсиб, 11,5 миллионга, туризм экспорти эса 4,7 миллиард долларга етган.

Бу борада Россия, Беларус, Жанубий Корея, Германия, АҚШдаги элчилар олдига аниқ вазифалар қўйилган. АҚШ, Буюк Британия, Индонезия, Россия, Франция ва Хитой элчихоналарида туризм ва маданият бўйича маслаҳатчи лавозимлари жорий этилади. Ушбу давлатлардаги элчилар мазкур имкониятдан самарали фойдаланиб, туризм оқимини 2–3 карра оширишлари шартлиги кўрсатиб ўтилган.

Mahorat qirralari

KUNDALIK FAOLIYAT RITMI

ISHONCHNI OQLAB

«Afrosiyob» tezyurar poyezdining yurgandagi ovozi kapitan Xurshid Bayzakov uchun shunchaki sayohatga joziba baxsh etuvchi tovush emas, balki kundalik xizmat ritmidir. Yo'lovchi poyezdlarini kuzatish batalyoni huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi inspektori sifatida u har kuni Toshkentni Samarqand, Buxoro va Qarshi bilan bog'lovchi yo'nalishlar bo'ylab safarda bo'lganlarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida jonbozlik ko'rsatadi.

– Xizmatning o'ziga xos jihati yo'nalishlar masofasining uzunligida, – deydi kapitan X. Bayzakov. Doimiy aloqada bo'lish va joylardagi transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalarining navbatchilik qismlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash muhim. Yo'l davomida vaziyat doimiy nazorat qilinadi. Yo'lovchilar bilan tushuntirish ishlarini olib borish ham muhim jihatlardan biridir.

Transportdagi xizmat davomida nafaqat mas'uliyat va hushyorlik talab qilinadi, balki insonga chin dildan yordam berish istagi ham bo'lishi kerak. Ya-



qinda kapitan X. Bayzakovga Samarqanddan poytaxtga kelayotgan va yuz-ko'zidan sarosima sezilib turgan bir yo'lovchi murojaat qildi. U shoshilinchda ichida ancha miqdorda pul, bank kartalari va kalitlar bo'lgan sumkasini vokzalda unutib qoldirgan ekan. Ofitser zudlik bilan Samarqanddagi hamkasblari bilan bog'landi. Uning iltimosiga ko'ra, videokuzatuv kameralari qaydlari o'rganildi. Sumka tez orada topildi va ichidagi barcha buyumlari bilan keyingi reysda Toshkentga yetkazilib, qonuniy egasiga topshirildi.

TAJIRIBALI
MUTAXASSIS

X. Bayzakov 2016-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qiladi. U dastlab PPX safdor xodimi etib tayinlanib, Toshkent markaziy vokzali hududida jamoat tartibini saqlashga kirishdi.

2019-yilda «Afrosiyob» poyezdlarini kuzatish bo'linmasidagi mavjud bo'sh lavozimlar uchun tanlov e'lon qilinganida, Xurshid murakkab saralash tanlovidan muvaffaqiyatli o'tdi. Uning asosiy ustun jihatlardan biri o'zbek, tojik, qozoq, rus va ingliz tilarida erkin muloqot qila olishi bo'ldi. Hamkasblari ham kapitan Bayzakovni turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, yuksak kasb mahoratiga ega professional sifatida ta'riflashadi.

ASOSIY KUCH
MANBAYI

Uzun yo'l mashaqqatidan so'ng Xurshid uyiga qaytadi. Bu yerda uni sevimli va ahil oilasi: ota-onasi – Abjalil aka va Umida aya, rafiqasi Feruza, qizlari Malika va Parvina, o'g'ilchasi Muhammadamin qarshi oladi. Qadrdon xonadonda hukm surgan mehr-muhabbat va samimiy muhit, yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi ofitserga keyingi yo'nalishga chiqish uchun yangi kuch bag'ishlaydi. Chunki u oila o'chog'ida hammasi joyida ekaniga ishonch hosil qilib, o'z diqqatini asosiy ishiga – «Afrosiyob» yo'lovchilari safar davomida to'liq xavfsizlik hissini tuyishi uchun xizmatga bag'ishlay oladi.

Radik TUMPAROV,
o'z muxbirimiz.



Yoshlar — kelajak bunyodkori

TO'MARISNING FARG'ONALIK IZDOSHI

Marg'ilon shahar IIB TQX terrorizmga qarshi kurashish bo'linmasi tezkor vakili lavozimida xizmat qilayotgan katta leytenant Dilafro'z Uzoqova ham o'z maqsadlari sari dadil odimlayotgan faol yoshlar sirasiga kiradi.

Bolaligidan ichki ishlar organlari xodimlariga havas qilib ulg'aygan lavhamiz qahramonining orzulariga IIV Farg'ona akademik litseyi qanot berdi. U 2017–2020-yillarda mazkur dargohda o'qib, puxta bilim egalladi. Keyinchalik olgan bilimlari tufayli IIV Akademiyasi kursantlari safiga qo'shildi.

2023-yilda Akademiyani tamomlagach, Marg'ilon shahar IIBda faoliyatini boshlagan jonsarak bu qiz erkaklar bilan yonma-yon turib, sharaflari vazifani mardonavor bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda tajriba orttirib, bilmaganlarini ustozlardan o'rganyapti. Profilaktik tadbirlarni tashkil etishdagi faolligi esa e'tirofqa sazovordir.

Yurtimizda turli sohalarida tashabbuskorlik ko'rsatib, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, tirishqoq va intiluvchan yoshlar munosib rag'batlantirilishi Dilafro'z misolida ham yana bir bor o'z isbotini topdi. Uning jonsarakligi,



kasbga sadoqati va xizmatda erishayotgan yutuqlari e'tiborga olinib, Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'iga ko'ra, «To'maris» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

– To'maris siymosiga havas qilmagan qizlar juda kam topiladi, – deydi lavhamiz qahramoni quvonchini yashiro olmay. – Men ham buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanib, ularga havas qilib kamolga yetganman. Bugun ko'ksimga taqilgan ulug' ajdodimiz nomi bilan ataluvchi ushbu ko'krak nishoni zimnamdagi burch va mas'uliyatni ikki hissa oshirganini his etdim. Demak, men To'maris kabi shiddatli, qat'iyatli va vatanparvar bo'lishim, o'zimga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashim zarur. Bu mukofotga sazovor bo'lishimda menga kasb sir-asrorlarini o'rgatib, qo'llab-quvvatlab kelayotgan Marg'ilon shahar IIBdagi barcha ustozlarimning mehnati mujassam ekanligini ham alohida e'tirof etaman.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Qonunchilikdagi yangiliklar

Jamiyat hayotining ko'pgina jabhalarida raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan davom etmoqda. Jumladan, joriy yilning 19-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.



«AQLLI» MIGRATSIYA

Unga ko'ra, **2026-yil 1-maydan eksperiment tariqasida**

Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 tadan tuman (shahar) migratsiya va personallashtirish bo'linmalarida o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilgan, sun'iy intellekt asosidagi «Aqlli» migratsiya shoxobchalari tashkil etiladi.

Aynan shu sanadan e'tiboran, IIV huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti hamda uning hududiy boshqarmalariga O'zbekistonga elektron kirish vizasi asosida kirib kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning elektron vizalari amal qilish muddatini **1 marotaba 30 kungacha**

uzaytirish huquqi beriladi. Shuningdek, chet el fuqarolariga O'zbekiston hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomani rasmiylashtirish vakolati Departament va uning

Ichki ishlar organlari sohasidagi ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini olishda rozilik berish uchun «E-Rozilik» platformasi orqali yuzni tanib olish tizimidan foydalangan holda amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Endilikda u ta'lim muassasasi yotoqxonaga joylashish bo'yicha shartnoma tuzilganda, bir vaqtning o'zida (kompozit tartibida) yotoqxonaga turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi. Bu esa talabani turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishda ortiqcha ovo-ra bo'lishining oldini olish hamda byurokratik tartibotlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Qabul qilingan qaror bilan O'zbekistonga elektron vizasi asosida kirib kelayotgan davlatlar fuqarolarini elektron vizalarini amal qilishini mamlakat hududidan chiqmagan holda Migratsiya va personallashtirish departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan bir marta 30 kungacha uzaytirish imkoniyati yaratilishi sayyohlar oqimining oshishiga olib keladi.

hududiy boshqarmalariga ham taqdim etiladi.

Yana bir muhim yangilik, **2026-yil 1-sentabrdan** talabalar yotoq-

xonasiga joylashish bo'yicha shartnoma tuzish bilan bir vaqtda talabalarni turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olishning kompozit tartibi joriy etiladi. Shuningdek,

xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekistonga taklif qilish, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish hamda mulkdor yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining murojaati asosida uning turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligini bekor qilish uchun ariza yuborish kabi davlat xizmatlari YAIDXP va davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2026-yil 1-avgustga qadar sun'iy intellekt texnologiyalari asosida migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish, onlayn huquqiy maslahat berish, yuklarni kam bo'lgan migratsiya bo'linmalari haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi «Pasport-viza» avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining «Passport-visa» mobil ilovasi ishlab chiqiladi.

Ushbu qarordan ko'zlangan maqsad ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo'linmalarini bosqichma-bosqich tezkorlik va shaffoflik tamoyillari asosida aholiga yanada qulay va sifatli xizmat ko'rsatuvchi «servis bo'linmalar»ga aylantirishdan iborat. Mazkur hujjat aholiga qulaylik yaratish, migratsiya va personallashtirish sohasidagi bo'linmalar faoliyatini tashkil etishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va ular samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Behzod SAYFULLAYEV,
IIV huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti boshlig'i o'rinbosari, polkovnik.

soha raqamlashtiriladi





Yuksak mukofot sohiblari

ISHONCH MAS'ULIYAT DEMAKDIR

Mirat Nukus shahridagi 2-sonli ixtisoslashgan litseyning yuqori sinfida o'qib yurgan paytlari boshqa tengdoshlari qatori kelgusida qaysi kasbni tanlash haqida ko'p o'ylardi. Odamlarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlashga bo'lgan qiziqishi tufayli ustozlaridan mazkur yo'nalishda qanday oliy ta'lim muassasalari borligini so'rab bilgach, IIV Akademiyasida tahsil olishga qaror qiladi.

O'g'lining qat'iy ahdi haqida Marat og'a: «Agar aniq ishonch bo'lsa, hujjat topshirib ko'r, lekin bu sharaflilik kasbning juda mashaqqatli ekanini unutma», – dedi. Ketma-ket ikki yil omadi yurishmay, o'qishga kira olmasa ham, qaysarligi tutib, niyatidan qaytmadi. Nihoyat uchinchi yili maqsadiga erishdi.

2006-yili Akademiyani tugatganidan so'ng, ilk xizmat faoliyatini Nukus shahar IIB HPB profilaktika inspektori lavozimidan boshladi. So'ngra Shumanay tumani IIB JQB katta tezkor vakili, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JQB tezkor vakili, bo'linma boshlig'i, Qonliko'l tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari va boshqa turli lavozimlarida faoliyat olib boradi. Podpolkovnik Mirat Jaqsimuratov 2024-yil iyun oyidan buyon Nukus shahar IIB 1-sonli IIB boshlig'i lavozimida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda mazkur IIB xodimlari xizmat ko'rsatadigan hududda 18 makon fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, 98 mingga yaqin aholi yashaydi. O'tgan davr mobaynida M. Jaqsimuratov rahbarligida bo'lim xodimlari tomonidan aholining tinchlik-osoyishtaligini asrash, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda.

Ayniqsa, aholi muammolarining o'z vaqtida yechimini topishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu hududda yashovchi bir ayol bo'limga kelib, o'g'li o'zidan yoshi kattaroq sheriklari bilan qurilish ishlarini bajarib kelishini aytdi. Oxirgi marta ishlagan xonadon egasi farzandiga mehnat haqini bermayotganidan shikoyat qildi. Podpolkovnik M. Jaqsimuratov murojaatni tinglagach, uni batafsil o'rganib chiqish bo'yicha xodimlarga tegishli ko'rsatma beradi.

O'rganish davomida aslida xonadon egasi bosh usta bilan to'liq hisob-kitob qilgani ma'lum bo'ladi. Ammo ustaboshi ayolning o'g'lini aldagan, hatto unga tegishli pulning bir qismini o'z ehtiyoji uchun ishlatishga ham ulgurgan ekan. Shundan so'ng ushbu shaxs bilan M. Jaqsimuratov tegishli tartibda suhbat o'tkazganida, u aybiga iqrar bo'lib, oilasida yuzaga kelgan qiyinchilik sababli shunday yo'l tutganini aytib, tez orada pullarni to'liq qaytarishga va'da beradi. Haqiqatan ham oradan bir necha kun o'tib, murojaatchining o'g'li bo'limga kelib, mehnat haqini olganini aytib, buning uchun minnatdorlik bildiradi.

Podpolkovnik M. Jaqsimuratov rahbarligidagi bo'lim shaxsiy tarkibining fidoyilarcha xizmati tufayli o'tgan yilda umumiy ji-

noyatchilik 45 foizga kamaydi. Xususan, o'g'rilik, firibgarlik, bezorlik va qasddan badanga shikast yetkazish holatlari keskin qisqardi. Ayni paytda makon fuqarolar yig'inlaridan 5 tasi «yashil», 11 tasi «sariq» va 2 tasi «qizil» toifada. Joriy yilda bu ko'rsatkichni yanada yaxshilash choralari ko'rilyapti.

Yaqinda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhi davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldilar. Jumladan, Nukus shahar IIB 1-sonli IIB boshlig'i, podpolkovnik Mirat Jaqsimuratov «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

– Ushbu mukofot xizmat hududimizdagi aholi bizga ishonishidan, xizmatimizdan mamnun ekani-dan dalolat beradi. Ishonch esa mas'uliyat demakdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun fuqa-

rolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lida bor kuch-g'ayratimni safarbar etishga tayyorman, – deydi podpolkovnik Mirat Jaqsimuratov.

Lavhamiz qahramoni namunali oila boshlig'i. U turmush o'rtog'i Biybimariyam Dauletnazarova bilan hozirda 4 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

*Qoraqalpog'iston
Respublikasi.*



Kasb fidoyisi

Lavhamiz qahramoni ilk xizmat faoliyatini viloyat IIB EKMDa boshlab, jinoyat izlarini aniqlash, ashyoviy dalillarni to'plash va tahlil qilish borasida yetarli tajriba orttirgan. Bu esa keyinchalik tergovchilik faoliyatida mustahkam huquqiy bilim va amaliy ko'nikmalarga tayanish imkonini berdi.

Tergov sohasining nozik jihatlarini chuqur egallab, jinoyat ishlarini xolisona va qonun talablari asosida tergov qilmoqda. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish, ishonchli dalillar asosida qaror qabul qilish va fuqarolar huquqlarini himoya qilish uning faoliyatidagi asosiy mezonlardandir.

Yaqinda o'g'rilik jinoyati bilan bog'liq ishni tergov qilish jarayonida yana ikkita o'g'rilikni fosh etdi. «Angi-

MAYOR BO'RIYEVNING AHDI

Xatirchi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasining katta tergovchisi, mayor Ulug'bek Bo'riyev fidoyilik, burchga sadoqat va mas'uliyatni suv bilan havodek zarur fazilatlar deb hisoblaydi.



don» mahallasi hududidagi dalada o'tlab yurgan 2 bosh qoramol o'g'irlangan edi. Ushbu holat yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchining yon qo'shnilari tergovga jalb qilindi. Ular bu voqea-ga aloqasi yo'qligini, oxirgi marta ustalarni yo'qlab qo'shnisizlikiga borishgani-ni aytishdi. Ulug'bek Bo'riyev shu jihatga e'tiborini qaratdi. So'ng Samarqand viloyatidan kelib ishlagan ustalarni topishga kirishdi.

Shubhalari o'z tasdig'ini topdi. Ustalar dalaga qo'yib yuborilgan mollardan egasi qaysi vaqtlarda xabar olishini zimdan kuzatishgan. Ishlarini tugatib bo'lgach, payt poylab, ikki bosh

qoramolni o'g'irlashgan ekan. Boz ustiga ulardan biri probatsiya nazoratida bo'lib, avval ham o'g'rilikka qo'l urgani ma'lum bo'ldi. Yuqorida qayd etganimizdek, tergov-surishtiruv ishlari davomida ular yana ikki o'g'rilik holatiga aloqadorligi aniqlandi.

Bu jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlashga ahd qilgan lavhamiz qahramonining ana shu yo'ldagi faoliyatidan bir shingil, xolos. Ikki ukasi ham uning izidan borib, huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilishmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Hamkasblarimiz haqida

TIYRAK NIGOHLI POSBONLAR

Ko'p yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni uch nafar xodimining o'tkir va teran nigohlari, ziyrakligi sabab bir jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

Joriy yilning 5-yanvar kuni Qarshi shahrining «Charmgar» mahallasi hududida kechki soat o'nlarda xizmat olib borayotgan kichik serjant Shavkat Rahmatullayev, safdorlar Shavkat Azizov va Firdavs Qilichevda bir fuqaroning xatti-harakatlari shubha uyg'otdi. Shu bois u to'xtatilib, suhbatlashilganida gaplari uzuq-yuluq chiqib, ko'zlarini olib qocha boshlaydi. Planshet orqali shaxsiga aniqlik kiritilganida esa, uning Qarshi

tumanida yashovchi 22 yoshli I.B. ekani ma'lum bo'ldi.

Shundan so'ng I.B. «102» muqim mobil postiga taklif etilib, yonlari ko'zdan kechirildi va gugurt qutisi hamda 1000 so'mlik kupyuraga o'ralgan giyohvandlik o'simligi quritmasi borligi aniqlandi. Fuqaro va ashyoviy dalillar Qarshi shahar II OFMBga topshirildi. Hozir holat yuzasidan tergov harakatlari olib borilmoqda.



Umuman olganda, PPX batalyoni xodimlari joriy yilning o'tgan davrida 31 nafar fuqaro sarxush (spirtli ichimlik

yoki narkotik modda ta'sirida bo'lgan, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmagan) holda ekanini aniqlab, tibbiyot

muassasalari va hushyorxonalarga topshirishdi. «Tig'» profilaktik tadbiri doirasida esa 10 nafar fuqarodan o'tkir tig'li buyumlar olinib, tegishli chora ko'rildi.

Shuningdek, tungi vaqtlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarining oldini olish maqsadida viloyatdagi 139 ta obyekt tekshirilib, qorovullar xizmat faoliyati o'rganilgan holda, profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Tungi vaqtda qarovsiz qoldirilgan 25 ta buyum o'z egalariga ogohlantirib topshirildi.

Eson YO'LDOSHEV,
katta serjant.

Qashqadaryo viloyati.

Yo'l boshida

BOLA TARBIYASI – DOIMO DOLZARB

Bolalikdagi o'ta erkinlik va o'yinqaroqlikdan o'zini tiya oladigan, yorqin kelajak bunyod etishni o'ylaydigan bolalar ham borki, ular doim o'qishni, biror foydali ish bilan shug'ullanishni afzal ko'rishadi. Bunday bolalarning kelajagi porloqdir. Biroq ayrimlari hayotga yengil-yelpi qarab, huquqbuzarlik yoki jinoyatga qo'l uradi.

– Bolalar va o'smirlarni jinoyat yo'lga kirib ketishdan saqlab qolish osoyishtalik posbonlarining muhim vazifalaridan biridir, – deydi Qorovulbozor tumani IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar masalari bo'yicha katta inspektor-psixolog, katta leytenant Hurriyat Sultonova. – Buning uchun hamkor organlar, o'quv muassasalari va tashkilotlar bilan birgalikda o'tkazilayotgan tadbirlarda yoshlar



va voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar hamda jinoyat sodir etilishiga barham berish, ekstremizm va fanatizmni targ'ib qiluvchi g'oyalardan asrash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, notinch oilalarda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarning ongini zaharlayotgan, salbiy ta'sir ko'rsatayotgan shaxslarga qonuniy choralar ko'rildi.

Katta leytenant H. Sultonovanning ta'kidlashicha, o'tgan yil mobaynida 70 nafardan ortiq ichki nazoratda turuvchi nizoli, g'ayriijtimoiy oilalarning farzandlari bilan yakka tartibda profilaktik ishlar amalga oshirilib, ularning oilaviy sharoitlari o'rganib borildi. Voyaga yetmaganlar bepul

kurslarga va qiziqishlaridan kelib chiqib to'garaklarga jalb qilindi. Shuningdek, ularning psixologik shaxs kartasi yaratildi va o'quv yili boshidan buyon ta'lim tarbiyasi nazoratga

olinib, «Oila-mahalla-maktab» tamoyili asosida ishlar olib borilmoqda.

Huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishda profilaktik hisobda turgan 5 nafar voyaga yetmagan bilan yakka tartibda profilaktik ishlar olib borildi. Yana 3 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj sifatida tegishli tashkilotlarga yo'naltirildi. Muntazam va sababsiz dars qoldiruvchi 50 nafardan ortiq o'quvchining maktabga kelmaslik sabablari o'rganilib, bartaraf qilindi va dars jarayonlariga qaytarildi. Ayni paytda ular bilan profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Sport

KUHLILAR SARALANDI



Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash xizmati va uning joylardagi bo'linmalari xodimlari o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Unda 30 nafardan ortiq sportchi ishtirok etdi. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad shaxsiy tarkib orasida ushbu sport turini ommalashtirish, shuningdek, Qo'riqlash xizmatining stol tennisi bo'yicha terma jamoasiga kuchli sportchilarni saralab olishdan iborat edi.

Murosasiz ruhda, qizg'in bahslarga boy tarzda o'tgan musobaqa yakuniga ko'ra birinchi o'rinni El-likqal'a tumani vakillari, ikkinchi o'rinni Qorao'zak tumani sportchilari, uchinchi o'rinni esa Mo'ynoq tumanidan kelgan xodimlar qo'lga kiritdilar.

G'olib va sovrindorlar medal, diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Allamurat XOJANAZAROV,
kapitan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Ayol va jamiyat

BANDLIK ORQALI qayta jinoyatchilikning oldi olinmoqda

SURXONDARYO VILOYATI. Denov tumanida probatsiya hisobida turgan xotin-qizlar bilan ishlashda manzilli, ijtimoiy va profilaktik yondashuv asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Tuman IIB JXX Probatsiya bo'linmasi inspektorlari tomonidan ularning turmush sharoiti, bandligi, oilaviy va ijtimoiy muammolari chuqur o'rganilib, amaliy yordam ko'rsatilmoqda.



Ayni paytda tuman IIB JXX Probatsiya bo'linmasi hisobida 111 nafar xotin-qiz ro'yxatda turadi. Ulardan 13 nafari axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan mahkumalar bo'lib, barchasining bandligi ta'minlangan. Shuningdek, ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan 44 nafar xotin-qizga ham ishlash uchun sharoit yaratildi.

Insonlarni foydali mehnat bilan band qilish, shu bilan birga, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qayta jinoyatchilikning oldini olishda samarali omillardan biri sanaladi. Bu boradagi ishlar natijasi o'laroq, 2025-yilda 38 nafar xotin-qiz mudatidan oldin sinov tariqasida ozod qilindi, bir nafari Prezidentimizning afv etish to'g'risidagi farmoni asosida ozodlikka chiqarilib, oilasi bag'riga qaytdi.

– Hozirgi kunda jinoyat sodir etib, probatsiya hisobida turgan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, ularni

ish bilan ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, – deydi tuman IIB JXX Probatsiya bo'linmasi inspektori, katta leytenant Manzura Jo'rayeva. – Yaqinda bo'linma hisobida turgan Sh.Ma'rupova va O'.Mamatova ham tadbirkorlik va biznes asoslari yo'nalishi bo'yicha o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomladi. Bu ularning mustaqil hayotga qadam qo'yishi uchun zamin yaratadi.

Bunday manzilli profilaktika ishlari nafaqat jinoyatchilikni kamaytirish, balki xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish, ularni sog'lom muhitga qaytarishda ham muhim. Tumanda amalga oshirilayotgan mazkur ishlar bu yo'nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.



TOSHKENT SHAHRI. Oilaviy munosabatlarda gohida jiddiy nizolar ko'zga tashlanib turadi. Bunday vaziyatlarda xotirjamlikni tiklash, ayollar huquqini himoya qilish va eng muhimi – jinoyat sodir etilishining oldini olish mas'uliyati xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar zimmasiga tushadi.

NIZOGA YECHIM – ADOLATDA



Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumani II OFMB 2-sonli IIB XQMB katta inspektori, podpolkovnik Lolaxon Tursunaliyeva ana shunday mas'uliyatli vazifani zimmasiga olgan, hududdagi 15 ta mahalla xotin-qizlarining dard-u tashvishi bilan yashayotgan xodimlardan.

Ko'pincha oilaviy nizolarga «Er-xotinning urushi – doka ro'molning qurishi» qabilida qaraladi. Biroq statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'z vaqtida yechim topilmagan kichik nizo katta fojiga sabab bo'lishi mumkin. O'tgan yil davomida 68 nafar xotin-qizga nisbatan «himoya orderi» rasmiylashtirib berilgani – bu shuncha ayolning zo'ravonlikdan najot topgani va shuncha oilada sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldi olingani demakdir.

Bugungi kun inspektori faqat voqea joyiga boruvchi emas, balki aholi bilan doimiy muloqotda bo'luvchi xodimdir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan «Mening inspektorim» mobil ilovasi bu borada yangi davrni boshlab berdi. Shu kunga-

cha uning tomonidan 300 dan ortiq fuqaro ushbu tizimga ulandi. Bu ishlar jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda.

Inspektor faoliyatida quruq hisobotlardan ko'ra, inson taqdiri ustuvor. Buni podpolkovnikning kundalik ishlarida ham ko'rish mumkin. Munavvarqori nomli mahalladagi Gulbodom ko'chasi-da yashovchi Shahnoza Artiqovanning taqdiri bunga yaqqol misol. Ishsizlik va moddiy qiyinchilik girdobida qolgan ayolga nafaqat ma'naviy, balki amaliy yordam ko'rsatilib, uning bandligi ta'minlandi. Yakka-yolg'iz yashovchi xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarning holidan xabar olish ham podpolkovnik uchun kasbiy majburiyat emas, balki insoniy burchga aylangan.

– Jinoyatga to'siq – hushyorlikda, nizoga yechim – adolatda, – deydi lavhamiz qahramoni. Uning faoliyati sarhisobi shuni ko'rsatadiki, qayerda inspektor mahalla bilan hamnafas bo'lsa, o'sha yerda xotin-qizlar o'zini xavfsiz his qiladi. Zero, mahalla osoyishtaligi – yurt tinchligining mustahkam poydevoridir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



Ustoz-shogird

MEHR RISHTALARI

Kapitan Abdusattor Tog'ayev xizmat faoliyatini profilaktika inspektorligidan boshlagan. To'rt yil Zarbdor tumanidagi «Oqbuloq» mahallasida osoyish-talikni saqlashga mas'ul bo'ldi, keyinchalik viloyat IIBda Tahlil va muvofiqlashtirish markazida faoliyat ko'rsatdi. 2024-yildan buyon viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi «102» xizmati boshlig'i sifatida xizmat qilayotgan lavhamiz qahramoni talabchan va bilimdon ustoz, podpolkovnik Bobur Baratov bilan haqli ravishda faxrlanadi.

– Ayni damda ham rahbar-xodim, ham ustoz-shogird maqomida xizmat qilmoqdamiz. Uning har bir topshirig'i, tushuntirishi biz uchun dars bo'lsa, turli hayotiy vaziyatlardagi pand va o'g'itlari insoniylik sabog'i hisoblanadi. Ayniqsa, tezkor vaziyatni kuzatish, ma'lumotlarni jamlash, kuch va vositalarni boshqarish uchun hamkor idoralar bilan birga ishni tashkil etish bo'yicha har kungi



xizmat davomida yangi-yangi bilimlarni o'rganamiz. Turli vaziyatlarda ustozning boy tajribasi, yuksak kasbiy fazilatlarini namoyon bo'ladi, – deydi kapitan A.Tog'ayev.

Darhaqiqat, «Ustoz-shogird» an'anasi yetuk mutaxassislarini yetishtirishda, shu jumladan, huquq-tartibot idoralari faoliyatini samarali tashkil etishda o'zini oqlagan tizim. Shu bois Jizzax viloyati ichki ishlar organlarida bu an'anaga doimiy ravishda amal qilinib, xizmatga yangi qabul qilingan har bir xodim tajribali mutaxassisga shogird sifatida biriktiriladi. Podpolkovnik Bobur Baratov va kapitan Abdusattor Tog'ayevning ustoz-shogirdlik an'analari yillar davomida mehrlari rishtaga aylanib borayotgani bunga yorqin misoldir.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

NOZIK NUQTADA TURIB

Jinoyat va haqiqat o'rtasidagi nozik nuqtada turib ish olib borish mas'uliyatli vazifa. Termiz shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, katta leytenant Muhayyo Qudratova ana shunday sharaflari vazifani sidqidildan bajarib kelayotgan fidoyi xodimlardan biridir.



Xizmat faoliyatini Denov tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi surishtiruvchiligidan boshlagan lavhamiz qahramoni kasbiy kamolot yo'lida dadil qadam tashlab kelmoqda. Firibgarlik, bezorilik, giyohvandlik moddalari oldi-sotdisi kabi murakkab jinoyatlarni fosh etishdagi faol ishtiroki, dalillar bilan ishlashdagi sinchkovligi uni sohaning bilimdon mutaxassislaridan biri sifatida ta'itdi. Binobarin, tergov jarayonida har bir holatga xolisona, qonun doirasida yondashish Muhayyo Qudratovanning faoliyatida ustuvor tamoyil hisoblanadi.

– Jinoyatlarni ochishda «kalavanning uchini topish», dalillarni to'plash, inson taqdiriga daxldor qarorlar qabul qilish har doim ham oson kechmaydi, – deydi u. – Aslida, tergovchi bo'lishimga otam sababchi bo'lgan. Bugun u men bilan faxrlanishini ko'rib, quvonaman. To'g'ri, ba'zan qiyin, jumboqlarga to'la voqealar sodir bo'ladi. Biroq otamning bildirgan

ishonchi va turmush o'rtog'imning qo'llab-quvvatlovi menga dalda bo'ladi.

Darvoqe, katta leytenant Muhayyo Qudratova 2024-yilda viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi tomonidan «Yilning eng yaxshi tergovchi ayol xodimasi» deb topilgani e'tiborga loyiq. Bu e'tirof nafaqat shaxsiy yutuq, balki ayollarning tergov kabi murakkab sohada munosib o'rin egallayotganining yaqqol isbotidir.

Muhayyo Qudratova xizmat bilan bir qatorda, sportga ham alohida e'tibor qaratadi. Voleybol bilan muntazam shug'ullanib, Tergov boshqarmasi jamoasi a'zosi sifatida viloyat va viloyatlararo musobaqalarda g'alabalarni qo'lga kiritishda faol qatnashgani uning irodali, jamoaviy ruhga ega shaxs ekanini ko'rsatadi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Tibbiyot jonkuyarlari

KO'ZLARGA NUR BAG'ISHLAB

Jajji Gulchehra dugonalari bilan o'yinlarda shifokor rolini bajarishni xush ko'rardi. Ba'zilariga «muolaja» qilalar, ayrimlarining yuragiga quloq tutib, kamroq konfet yeyishni tavsiya qilardi. Taqdir taqozisiga ko'ra shifokorlik keyinchalik hayotining mazmuniga aylandi...

1992-yilda O'rta Osiyo pediatriya tibbiyot oliygohini tamomlagan Gulchehra Anorboyeva Gulistondagi viloyat shifoxonasida ish boshladi. Qariyb o'n bir yil davomida shu yerda yuzlab insonlarning salomatligini tiklashga katta hissa qo'shdi. 2003-yilda uni viloyat IIB Tibbiyot bo'limiga ishga taklif qilishdi.

Taklifga rozi bo'lgan shifokor orada malakasini oshirib, yetuk oftalmologga aylandi. Harbiy-tibbiy komissiya a'zosi bo'lganida ish hajmi yanada oshdi.

Bundan to'rt yil oldin viloyat IIB Tibbiyot bo'limining binosi zamonaviy ko'rinish kasb etdi. Yorum, keng xonalar so'nggi tibbiy apparatlar, uskunalar bilan jihozlandi. Jumladan, oftalmologiya kabinetiga

xorijdan so'nggi diagnostik qurilmalar olib kelib o'rnatildi. Natijada xodimlarning ko'z kasalliklarini erta aniqlash, to'g'ri tashxislash imkoniyati yaratildi. Qolaversa, hozirgi paytda bemorlar tez tuzalishiga lavhamiz qahramonining shirinsuxanligi ijobiy ta'sir qilayotgani ham bor gap.

Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot bo'limi oftalmolog shifokori Gulchehra Anorboyeva namunali oila sohibasi. Uning turmush o'rtog'i ham shifokor. Ular birga ikki qiz va bir o'g'ilni voyaga yetkazishdi. Hozirda farzandlar ham ota-ona yo'lidan ketishmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Yangi O'zbekiston — yangi ichki ishlar organlari

TEZKOR BOSHQARUV MARKAZI: tizimning yaxshi natijalari

So'nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida barcha tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini samarali boshqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlarning amaldagi ifodasi sifatida Farg'ona viloyati IIBda o'tgan yilning oktabr oyida ishga tushirilgan Tezkor boshqaruv markazida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, operativ vaziyatni tezkor tahlil qilish hamda hodisalarga zudlik bilan javob qaytarish imkoniyati yanada yaxshilandi. Sun'iy intellektga asoslangan yangi tizim orqali boshqariladigan markazda ichki ishlar organlarining barcha kuch va vositalari nazoratda bo'ladi.

– Bir joyda turib viloyat hududidagi vaziyatni avtomatik tahlil qilishimiz, harakatlanish yo'nalishlarini bashorat qilishimiz va zarurat tug'ilganda tezkor qaror qabul qilishimiz mumkin, – deydi markaz boshlig'i, mayor Elmurod Mo'minov. – Yangi texnologiyalar tufayli xodimlarimizning vaqti tejalyapti, qarorlar aniq va tez qabul qilinmoqda, aholi xavfsizligi esa yanada yuqori darajada ta'minlanyapti. Bu faqat texnik loyiha emas, balki fuqarolarimiz tinchligi va farovonligi yo'lida xizmat qiladigan yangi boshqaruv madaniyatining boshlang'ich nuqtasi, desam, adashmagan bo'laman.

Viloyatda raqamlashtirish borasida ikki yil oldin boshlangan tadbirlar natijasida mahallalar, savdo markazlari hamda bozorlarga, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga zamonaviy kameralar o'rnatildi. Ko'p qavatli uylarning eshiklari va yo'laklariga tashvish tugmalari o'rnatildi,

minglab xonadon texnik qo'riqlovga olindi.

E'tiborlisi shundaki, o'rnatilgan kameralarning 6225 tasi bevosita Tezkor boshqaruv markaziga integratsiya qilindi. Natijada o'tgan

ga o'rnatilgan kamera tasvirlariga tushadi. Maxsus platforma uning tasvirlari orqali qidiruvdagi shaxs ekanligini aniqlab, hududda xizmat olib borayotgan xodimlarning plan-shet qurilmasiga xabar yuboradi.



Yangi markazning ish boshlashi bilan Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida dronlar yordamida patrullik faoliyati ham yo'lga qo'yilgan.

qisqa davrda 310 nafar qidiruvdagi va bedarak yo'qolgan shaxs, 131 ta qidiruvda bo'lgan transport vositasi, 55 nafar adashib qolgan shaxs, 655 cheklovlarga amal qilmagan nazoratdagi shaxslar masofadan turib aniqlandi. 334 ta jinoyat esa «issiq izida» fosh etildi.

Misol uchun: muqaddam jinoyat sodir etib, qidiruvda bo'lgan Farg'ona shahar «Lolazor» MFY Abdulla Qodiriy ko'chasida yashovchi, 1994-yilda tug'ilgan K.M. go'sht markaziga kirgan vaqtda shu yer-



Xodimlar zudlik bilan go'sht markaziga yetib borib, tergovdan yashirib yurgan shaxsni ushlashdi.

Noma'lum shaxs Buvayda tumanining «Beglar» mahallasida joylashgan avtomobil yuvish shoxobchasidan 5 mln so'm pulni o'g'irlab, voqea joyidan qochib ketgan. Mazkur jinoyatni fosh etishda ham Tezkor boshqaruv markazining elektron tizimi qo'l keldi. Tizim orqali kuzatuv kameralaridagi tasvirlar tahlil etilganida, ushbu jinoyatni Namangan shahar «Guliston» MFYda yashovchi voyaga yetmagan Sh.M. sodir etganligi aniqlanib, o'sha kunning o'zidayoq qo'lga olindi.

yangi markazning ish boshlashi bilan Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida dronlar yordamida patrullik faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Dronlarning tasvirlari ham bevosita situatsion markazga integratsiya qilindi. Shuningdek, Farg'ona texnika universiteti olimlari tomonidan ixtiro qilingan o'ziyurar platforma jamoat tartibini saqlashga jalb etildi. Robot shaklidagi ushbu platforma masofada turib boshqariladi, jamoat joylarida yurib, jinoyat va huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumot hamda tasvirlarni markazga yetkazib turadi.


Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Xizmatlarda

AJIB HISNI TUYDIM – deydi Farida Suyunboyeva



Mamlakatimizda inson manfaatlarini, qadrimmatini, huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz farmoniga asosan Bekobod tumanida yashayotgan 20 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxsning yurtimiz fuqarosi, deya tan olinishi ushbu yo'nalishdagi ishlarining amaliy ifodasi bo'ldi, desak aslo mubolag'a emas.

– Asli tojikistonlikmiz. Ota-onam bilan O'zbekistonga kelib, shu yerda yashayotganimizga yigirma yildan oshdi, – deydi Farida Suyunboyeva. – Qo'limga O'zbekiston fuqarosi ekanligimni tasdiqlovchi huquqiy hujjat ID-kartani olar ekanman, ajib quvonch hissini tuydim. Axir, katta orzularimdan biri ushaldi.

Fuqaroligim yo'qligidan muammolarga duch kelgan vaqtlarim bo'lgan. Lekin mahallada qo'shnilar, tanishlar bilan doim hamjihatlikda, yaqin qarindoshurug'dek munosabatda yashab kelyapmiz. Quvonarlisi, ota-onam ham fuqarolikka qabul qilindi. Ular ham 2026-yilni shunday xursandchilik bilan boshlaganidan mamnun.

Ha, tuman IIB M va FRB xodimlari aholini shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan ta'minlash, migratsiya jarayonlarini qonun talablari bilan kelib chiqqan holda amalga oshirishdek muhim yo'nalishdagi ishlarga munosib hissa qo'shib kelishayotr. Xususan, o'tgan yilda sohaviy xizmat xodimlari tomonidan 20359 nafar yurtdoshimizga O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi (ID-karta), 4478 nafar fuqaroga esa xorijga chiqish biometrik pasporti topshirildi.

– Xizmat faoliyatimiz bevosita boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakillari bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etadi, – deydi Bekobod tumani IIB M va FRB boshlig'i, katta leytenant Abdurauf Djumanov. – Ayniqsa, xorijiy davlatlar fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mamlakatimizda bo'lish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish juda muhimdir. E'tiborli jihati, ushbu hamkorlik doirasida olib borilgan tadbirlarda respublikamizda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik holatlari bo'yicha o'tgan yilda 119 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, 46 nafar shaxs mamlakatimiz hududidan chiqarib yuborildi. Shuningdek, fuqarolarining 4123 nafari doimiy ro'yxatga olindi. O'qish, ishlash, davolanish hamda mehmon sifatida kelgan 85 nafar fuqaro esa vaqtinchalik ro'yxatga qo'yildi.

Ayni axborot texnologiyalari imkonlari tuman IIB M va FRB xizmat xonalarining zamonaviy jihozlar hamda kompyuter texnikalari bilan ta'minlangani misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish masalalarida bo'limga kelgan murojaatchilarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini batartib, tezkorlikda amalga oshirilishini ta'minlamoqda.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Islahotlar — amalda

«XAVFSIZ SHAHAR»:

kuzatish, reallik va natija uyg'unligi

Buning natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tezkor boshqaruv markaziga qarashli «Xavfsiz shahar» tizimining yagona apparat-dasturiy platformasi orqali joylardagi holat real vaqt rejimida kuzatilib, sodir bo'layotgan huquqbuzarliklar aniqlanib, jinoyatlar qisqa vaqtlarda fosh etilmoqda.

Endi jinoyatchi qocholmaydi

Ayni paytda respublika bo'yicha 4500 ta kamera markazga integratsiya qilingan.

Ular yordamida qayd etilgan holatlar yaqin atrofda xizmat olib borayotgan YPX, PPX xodimlari va profilaktika inspektorlari planshetlariga uzatiladi. Bu esa holatlarga qisqa vaqt ichida oydinlik kiritish yoki huquqbuzarlarni qo'lga olish imkonini beradi.

O'tgan yil mobaynida ushbu kameralar yordamida 15 ta jinoyat «is-siq izida» fosh etildi. Huquqbuzarlik sodir etib, voqea joyidan qochib ketgan, ma'muriy qoidabuzarlik sodir etib YPX xodimining qonuniy talablariga bo'ysunmagan 527 nafar shaxs aniqlanib, ushlangan. Shuningdek, jinoyat sodir etib, tergov va sud organlaridan yashirib yurgan 81 nafar qidiruvdagi shaxs kuzatuv kameralari orqali aniqlanib, tuman-shahar IIB xodimlari bilan birgalikda qo'lga olingan. Bundan tashqari, noma'lum tomonga chiqib ketgan 106 nafar fuqaro uyiga qaytarilgan bo'lsa, 400 dan ortiq holatda unutilib qoldirilgan buyumlar topilgan.

Istiqbolda joylardagi kameralar sonini 10 mingdan oshirish rejalashtirilgan. Bu imkoniyatlar yanada kengayib, aholining kundalik hayoti xavfsizligini ta'minlash sifati ortib boradi degani. Shu o'rinda so'zimizga isbot tariqasida markaz tomonidan aniqlangan holatlar bo'yicha bir nechta misol keltirsak.

«Hech kim ko'rmadi» deb o'ylagandi...

O'tgan yilning 26-dekabr kuni To'rtko'l tumani «Kaltaminor» OFY hududida yo'lni kesib o'tayotgan qizni avtomashina urib yuboradi.

Haydovchi qizga yordam berish o'rniga, hech kim ko'rmadi deb o'ylab, voqea joyidan qochib ketib, yashirinishga harakat qiladi. Kelib tushgan xabarga ko'ra, hodisa joyi kameralar yordamida o'rganilganda, yo'l-transport hodisasini «Spark» rusumli avtomashina sodir etganligi aniqlanib, haydovchi shu kunning o'zida qo'lga olinadi.

O'g'ri ushlandi

2026-yilning yanvar oyi boshlarida Nukus shahridagi 23-kichik tumanda yashovchi T.K. o'z uyidagi metall seyfdan bahosi 300 million so'mlikka yaqin tilla buyumlar va 1000 AQSH dollari o'g'irlanganligi yuzasidan «102» qisqa raqamiga xabar qoldiradi. Tezkor boshqaruv markazining xodimlari tomonidan o'g'rilik sodir etilgan hududga yaqin joylashgan yuzni taniydigan kameralarning videoyozuvlari o'rganilganda, bu ishga jabrlanuvchining singlisi Ye.U. qo'l urganligi aniqlandi.

Qidiruvdagi shaxs qo'lga olindi

Joriy yilning 12-yanvar kuni Tezkor boshqaruv markaziga integratsiya qilingan yuzni taniydigan kameralardan biri Shumanay tumanida yashovchi, o'g'rilik jinoyatini sodir etgani bois jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergovga kelishdan bosh tortib yurgan A.B. Nukus shahridagi ko'chalardan birida harakatlanib borayotganligini aniqlaydi. Ushbu xabar mazkur hududda xizmat olib borayotgan xodimlarga uzatilib, A.B. qo'lga olinib, ichki ishlar bo'limiga olib kelinadi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi



Davlat xizmati – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlarini amalga oshirishga qaratilgan professional xizmat faoliyatidir.

DAVLAT XIZMATIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGI

Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvida byurokrtiyani qisqartirish, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish orqali korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, davlat xizmatlarini soddalashtirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda. Aholi va tadbirkorlarga «xalq xizmatidagi davlat» tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan bu kabi tizimli islohotlar o'z samarasini bermoqda, ya'ni yangicha fikrlash, tafakkur va dunyoqarash shakllanmoqda.

Davlat siyosatini davlat xizmatchilari tashkil etadigan boshqaruv apparati amalga oshirilayotganligi bois, uning samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat boshqaruvida ham institutsional islohotlarni amalga oshirish, boshqaruv samaradorligini ta'minlashda innovatsion menejment instrumentlardan foydalanish davr talabiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi «Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida islohotlar ijrosini ekspert

jihtidan ta'minlash, samaradorligini oshirish, hududlar va tarmoqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, biznes muhitini yanada yaxshilash, davlat organlarining mas'uliyati va tashabbuskorligini oshirish, boshqaruvning barcha bo'g'inlari o'rtasidagi hamohanglikni mustahkamlashga qaratilgan qator vazifalar belgilandi.

Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, takrorlanuvchi nazorat funksiyalarini bekor qilish, qaror qabul qilishda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan respublika va mahalliy ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, davlat xizmatining samarali faoliyat yuritishi, davlat apparati va davlat xizmatining holati mamlakat aholisida unga nisbatan tasavvurlarni paydo qiladi. Davlat nomidan qaror qabul qilayotgan xizmatchining bilimi, salohiyati, harakati va faoliyatiga qarab davlat apparatiga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlariga baho beriladi. Shu bois davlat xizmatining qanday shakllanganligi, uning demokratik talablar

va boshqaruv tamoyillariga mos ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, ular bilan doimiy ishlash, malakasini oshirish, qayta tayyorlash, samarali davlat xizmatchilari zahirasi shakllantirish masalalari Yangi O'zbekiston oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Davlat organlarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, hududlarda yangi imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat organlarida inson resurslari bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida 2025-yil 6-dekabrda «Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon qabul qilindi.

Unga ko'ra, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi tashkil etildi. Agentlikning davlat organlarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, hududlarda yangi

imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish, shuningdek davlat organlarida inson resurslarini boshqarish va ularning salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Shu bilan birga, davlat organlarida xodimlarning korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish tizimi joriy etiladi. Uning natijasiga ko'ra, xodimning korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasi «past» deb baholanishi mazkur lavozimda mehnatga oid munosabatlarni davom ettirishiga monelik qiluvchi holat hisoblanadi hamda xodim korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi «past» bo'lgan boshqa lavozimga majburiy ravishda rotatsiya qilinadi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashda keskin va qat'iy pozitsiyani e'lon qildi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, 2026-yil korrupsiyaga qarshi kurashda «favqulodda holat» yili sifatida belgilanadi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi», deganlar qattiq adashadi. Hech bir idora, hech bir

tashkilot, hech bir mansabdor nazoratdan chetda qolmaydi. Komplayens xizmatining ishiga to'sqinlik qilish – korrupsiyaga sheriklik sifatida baholanadi.

Davlat organlarida bo'sh bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallashda yangicha tizim, kadrlar zaxirasini yuritish bo'yicha esa yangi tartib joriy etiladi. Unga ko'ra, davlat organlari tomonidan milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan lavozimlar uchun nomzodlar ro'yxati mustaqil shakllantiriladi. Saralashdan o'tgan nomzodlar tarafidan shaxsiy rivojlanish rejasining bajariishi «zaxira.bsa.uz» elektron platformasi orqali monitoring qilinadi. Salohiyatli kadrlar zaxirasiga nomzodlar mahallada faoliyat ko'rsatayotgan mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari orasidan tuman (shahar) hokimlarining xulosasi asosida ishchi guruh tomonidan saralanadi.

Yuqorida qayd etilgan farmon bilan davlat boshqaruvida «vazifa – funksiya – resurs – javobgarlik» zanjiri asosida samaradorlikni oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Unda Adliya vazirligi davlat organlari bilan birgalikda, ularning barcha vazifa va funksiyalari 5 ta darajaga tasniflangan holda, «Davlat funksiyalari» avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimiga kiritishi belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, endilikda jonajon Vatanimizda yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlarda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokrtiyadan xoli ekotizim yaratiladi. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi, boshqaruv samaradorligi oshiriladi. «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyilni amaliyotga tatbiq etishning yanada samarali mexanizmlari joriy etiladi.

Bahrom SAIDOV,
IIV Akademiyasi
Magistratura boshlig'i,
polkovnik, yuridik fanlar
doktori, professor.



Qoraqalpoq
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.

Tuman IIBda

ISHONCH VA IMKONIYAT – OSOYISHTALIK KAFOLATI

Buloqboshi tumani IIBda xavfsizlik faqat navbatchilik va nazorat bilan emas, balki inson taqdiriga befarq bo'lmash orqali ta'minlanayotganini ko'rish mumkin. Tumandagi 37 ta mahallaning har birida jamoat xavfsizligini mustahkamlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida ko'cha va xonadonlarda o'rganish ishlari olib borilyapti. Bu jarayon shunchaki tekshiruv bilan cheklanmay, aholi bilan yuzma-yuz muloqot, tushuntirish va maslahat berish orqali amalga oshirilyapti. Qonun buzilishining salbiy oqibatlari, uning oila va jamiyatga yetkazadigan zarari hayotiy misollar orqali tushuntirilyapti, shu bilan birga, odamlarning dardi, muammolari ham e'tiborsiz qolmayapti.

O'tgan yilda 2024-yilga nisbatan voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlar **53,3 foizga**, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **63,6 foizga**, yoshlar o'rtasidagi jinoyatlar esa **32,4 foizga** kamaygani bejiz emas. Bu kabi ijobiy o'zgarishlar sohaning boshqa yo'nalishlarida ham kuzatilmoqda. Bularning barchasi profilaktika va ishonchli muloqotga asoslangan tizimli ish natijasi ekani aniq. Ayniqsa, «Guliston», «Xontepa» va «Sarvontepa» mahalla fuqarolar yig'inida namunalish uslubini shakllangan. Bu yerlarda profilaktika inspektorlari, kapitanlar – Mirzahosil Parpiyev, Farhodbek



Tashkiliy bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Muzaffarbek Yulchiyev.

Gapporov hamda leytenant Eldorbek Abduqahhorovning xizmatlari alohida e'tirof etiladi. Ular mahallada faqat tartibni nazorat qilmaydi, balki har bir oilaning ho-

lidan xabar oladi, xavf guruhiga kiruvchi fuqarolar bilan ishlaydi, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashadi. Ana shu yondashuv tufayli



Tezkor navbatchi, kapitan Boburjon Turdiyev va navbatchi yordamchisi, serjant Mashrabjon Ahmedov.

yakunlangan yilda tumanda umumiy jinoyatchilik 2024-yilga nisbatan **32,4 foizga** kamayishiga erishildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tumanda o'g'irlik va yo'l-transport hodisalari nisbatan ko'proq uchrayapti. Bu holatlarning ildizida ko'pincha ishsizlik va ijtimoiy muammolar yotishi hisobga olinib, IIB tomonidan aholini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan fuqarolarning jamiyatga qayta moslashuvi ustuvor yo'nalishga aylandi. Ularga

o'ylarga tildim. «Qamoqdan kelgan odamga kim ham ish berardi?» deya tushkunlikka tushdim. Shunda tuman IIB mas'ullari holimdan xabar olibgina qolmasdan, yordam qo'lini ham cho'zishdi. Hozir ishlayapman, oylik maoshim ham yaxshi. Eng muhimi, oilam davrasida baxtli yashamoqdaman.

Tumanda o'tgan yili **100 nafarga** yaqin fuqaro ishga joylashtirilganining o'ziyoq bu borada erishilayotgan yutuqlar ifodasidir. Buloqboshidagi bu tajriba shundan dalolat beradiki, osoyishtalikni ta'minlash faqat jazo bilan emas, insonga ishonch va imkoniyat



«Uchko'cha» MFY profilaktika inspektori, katta leytenant Murodiljon Oxunjonov fuqaro bilan.

doimiy daromad manbayi yaratish orqali nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki jinoyatchilikning oldini olishga ham erishilmoqda.

– Yo'l qo'ygan xatolarim tufayli jazoni ijro etishga mahkum qilingan edim, – deydi «Fayz M» ishlab chiqarish korxonasi ishchisi Farhodbek Zulunov. – Ozodlikka chiqqanimdan so'ng

berish orqali ham mustahkamlanadi. Mahallada tinchlikni saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ana shu uyg'un ishlar tuman hayotida barqarorlik va xotirjamlikni ta'minlayotir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.



Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Nasibillo Mayitov va 7-sonli mahalla huquq-tartibot maskani bosh inspektori, podpolkovnik Mansurjon Xolmatov.




Tergovni bilimdonlar olib boradi

«YO'LCHIROG'IM – HAQIQAT, QARORIM – ADOLAT»

Tergov harakatlarini olib borish huquqiy bilim, teran mushohada, tahlil va odil xulosa bilan birga sabr-toqat, hissiyotni idora qilish va ruhiy barqarorlik talab qiladi. Samarqand viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi tergov va surishtiruv faoliyatini tashkil etish bo'limi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi, «Sodiq xizmatlari uchun» medali sohibi, podpolkovnik Dilduza Egamova ana shunday fazilatlarini tufayli murakkab sinovlardan o'tib, hamkasblari orasida o'z o'rnini topdi, hurmat va e'tibor qozondi.

2007-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan lavhamiz qahramoni ishni vijdonan bajarishni, fuqaro taqdiriga qonun doirasida yondashishni o'ziga mezon va hayotiy maqsad qilib olgan. Jinoyatlarni fosh etishda hujjatlarda aniqlikka, dalillarni tizimli yig'ishga, qarorlarni huquqiy asos bilan qabul qilishga alohida e'tibor qaratadi. Uning kasbiy yutuqlari faqat ish natijalari bilan emas, balki insonlarga bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. U har bir murojaat ortida inson taqdiri turganini yaxshi anglaydi.



– Podpolkovnik Dilduza Egamova sohaviy va min-taqaviy nazoratni puxta

amalga oshirib, dastlabki tergovni tashkil etish borasida uslubiy-amaliy

yordam ko'rsatib, mazkur bo'linmalar ish samaradorligini oshirishda faol ishtirok etyapti. Jinoyat ishlarini tugatishning asosililigini o'rganib, ularning qonuniyligi bo'yicha xulosalar qilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda, – deydi viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Komiljon Gaffarov.

Uning otasi iste'fodagi polkovnik Rabbimqul Egamov, onasi Nazokat opa shunday qizlari bilan faxrlanishadi.

– Yo'lchirog'im – haqiqat, qarorim – adolat.

Yaxshi niyat va yaxshi orzu inson taqdiriga ta'sir etadi. Shuning uchun har doim ezgu niyat qilaman, yo'ldan adashganlarga ham niyatni to'g'ri qiling, xayrli ishlarni, amallarni orzu qiling deymen. Har bir ishga adolat va vijdon bilan yondashaman. Chunki ertaga vijdonimning so'rog'idan uyalib qolmasligim kerak deydi, – Dilduza Egamova.

Lavhamiz qahramoni viloyat IIB xotin-qizlar kengashining huquqiy targ'ibot masalalari bo'yicha a'zosi. O'tgan yillar davomida o'rtirgan boy tajribasi va bilimlarini yosh xodimlarga qunt bilan o'rgatib, xizmat ko'nikmalarini hosil qilishda yordam berib kelmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Profilaktik tadbirlar

MUHIM TASHABBUS

Vohada o'tkazilgan profilaktik tadbirlar doirasida uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq 110 ta, korrupsiyaga oid 283 ta, terrorizm va ekstremizm yo'nalishida 302 ta jinoiy holat aniqlandi. 151 ta holatda 7,705 kilogramm giyohvandlik moddalari, 3476 dona psixotrop dori vositalari olinib, jinoyatlar «issiq izida» fosh qilindi. Shuningdek, 91 nafar qidiruvdagi shaxs ushlanib, jazo muqarrarlari ta'minlandi. Bedarak yo'qolgan 56 nafar shaxs topilib, oilasiga qaytarildi.



Muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ayrimlariga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatildi. Jinoyat sodir etishga moyil fuqarolarning turmush tarzi o'rganilib, 4634 nafari ishga joylashtirildi, 21072 nafari profilaktik hisobga olindi.



Ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklariga 8423 ta kodli qulf o'rnatilib, nosozlari tuzatildi. Mahallalardagi gavjum bozorlar va ko'ngilochar maskanlarga kuzatuv kameralari o'rnatilib, 11403 ta xonadon, 8893 ta

boshqa obyekt tezkor qo'riqlash pultiga ulandi.

51 ming nafardan ziyod haydovchilar yo'l harakati qoidalarini buzgani aniqlanib, 4875 ta transport vositasi vaqtincha saqlash jarima maydoniga joylashtirildi. Bu qoidabuzarliklar orasida avtomashinani mast holda hamda tegishli hujjatlarsiz boshqarish, bo'ysunmaslik, qizil chiroqda o'tish kabi inson hayotiga tahdid soluvchi holatlar ham bor.

Xulosa qilib aytganda, «Xavfsiz va sog'lom yurt» tadbiri davomida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik kuchaytirilib, profilaktika va targ'ibot ishlari tizimli yo'lga qo'yilgani faoliyat samaradorligini yanada oshirmoqda.

Fazliddin RAHMATOV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.



Qo'shqanotlar

OLTIN QOIDA

Kanselyariya ishi ko'pchilikka osondek tuyulishi mumkin. Ammo bu yerda hujjatlar qabul qilinadi, taqsimlanadi va tarqatiladi. Har qaysi hujjat jurnalga aniq qayd etilib, ijrochilarga tarqatilmasa vazifa, topshiriq ijrosiga, xizmat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buni chuqur anglagan viloyat IIB Tashkiliy-muvofiqlashtirish bo'limi tezkor-qidiruv xizmati kanselyariya katta ish yurituvchisi, safdor Lola Sulaymonova ishiga mas'uliyat bilan yondashadi.

– O'n yildan buyon ichki ishlar organlari xizmatidaman. Xat va hujjatlar bilan ishlash shosh-qaloqlikni yoqtirmaydi. Ozigina chalg'ish, salgina e'tiborsizlik hujjatning boshqa bo'lim yoki idoraga ketib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, ishimizda mas'uliyat shunchaki gap emas, kundalik oltin qoidamiz hisoblanadi, – deydi Lola Sulaymonova. – O'tgan har bir kun men uchun katta tajriba maktabi bo'lyapti. Ustozlarimdan ko'p narsa o'rgandim. Maqsadim yanada bilimli va malakali xodim bo'lib, Vatanimizga, jamiyatimiz xavfsizligiga hissa qo'shish.

Darvoqe, Lola Sulaymonovaning turmush o'rtog'i Sherzod Axtamov ham safdor. Viloyat IIB JXX JTSB ikkinchi tumanlararo Konvoy guruhida xizmat qiladi. Xizmat yo'li va yillar ularni ko'p bor sinovdan o'tkazgan. Shu bois, bir-birini qo'llab-quvvatlab, oila va kasb o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi. Bayram kunlaridagi kuchaytirilgan ish rejimi, navbatchilik va tungi kutilmagan chaqiruvlarga topshiriq, xizmat vazifasi va burchi deb qarashadi.



– Safdor Sherzod Axtamov kamtar, mulohazali inson. Aynan shu fazilatlarini uni jamoada hurmatga sazovor qilgan. Ba'zan navbatchilik paytlarida uning oilasiga qo'ng'iroq qilib tinch-xotirjamligini tez-tez so'rashi, ota-onasining sog'ligi uchun qayg'urishini ko'rib havasim keladi. Bir farzand bo'lsa, shunday bo'ladi-da, – deydi viloyat IIB JXX JTSB ikkinchi tumanlararo Konvoy guruhi komandiri, serjant Muhiddin Hamrayev.

Payariqdan Toyloqqa kelin bo'lib tushgan Lolaxon oila duo-go'ylari – qaynota va qaynonasining xizmatini qilib, ularning duosini olyapti. Uch farzandi – Muhammadali, Mustafo va Yashminaning ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul ekanini ham bir zum unutmaydi. Xizmatdan har qancha charchab kelgan bo'lmasin, ularga vaqt ajratadi.

Oilada va xizmatda bir safda bo'lgan ushbu safdorlar oilasiga ko'pchilik havas qilishadi. Chunki ular o'z hayot faoliyati davomida yoshlarga bir kasbni tanlagan juftlikning Vatanga sadoqati, hamkasblarga hurmati, xizmat burchiga mas'uliyati va oilaga vafodorlik namunasini ko'rsatib kelmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

Halollikni shior qilgan xodimlar

ACHCHIQ SABOQ

Aka-uka – oilaning tayanchi, bir-biriga suyanch bo'ladigan jigarlardir. Odatda aka ukasiga yo'l ko'rsatadi, uni himoya qiladi, hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashadi. Uka esa akasidan o'rnak oladi, qiyin paytda yelkadosh bo'ladi. Aka-uka o'rtasidagi mehr-oqibat, ishonch va hamjihatlik nafaqat oilaning barqarorligiga, balki jamiyatning kuchli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Shu bois har bir oilada akaning o'rne alohida qadrlanadi. Akaning o'zi ham ukalariga o'rnak bo'lishi shart. Biroq hayotda hamisha ham shunday bo'lavermaydi...

O'tgan yil dekabr oyida Toshkent shahrida yashovchi, Sh. Rahmonov hamda 2003-yilda tug'ilgan S. Abdunazarovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ularga nisbatan «qamoqqa olish» ehtiyot chorasini qo'llanildi. Mazkur jinoyat ishi Toshkent shahar Chilonzor tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Komiljon G'iyosiddinov yurituviga topshirildi.

Tovlamachilik jinoyatida ayblanayotgan yuqoridagi ikki nafar shaxs IIV huzu-

ridagi JIEDga qarashli Markaziy tergov hibsonasida saqlanayotgan, ularga nisbatan dastlabki tergov harakatlari olib borilayotgan bir paytda ayblanuvchi Sh. Rahmonovning akasi — M. Rahmonov tergovchi bilan bog'lanadi. U ukasiga nisbatan qo'llanilgan «qamoqqa olish» ehtiyot chorasini o'zgartirish, uni hibsdan ozod qilib, tergov harakatlarida uyidan qatnashiga ruxsat berishni so'rab, buning evaziga 400 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi.

Tergovchi fuqaroga bu kabi xatti-harakat qonunga

zid ekani va og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini qayta-qayta tushuntiradi. Shunga qaramay, u o'z niyatidan qaytmay, pora taklif qilishdan to'xtamaydi.

O'tkazilgan tezkor tadbir davomida M. Rahmonov katta leytenant Komiljon G'iyosiddinovning xizmat xonasida unga 400 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan paytda ash-yoviy dalillar bilan qo'lga olinadi. Natijada ushbu holat yuzasidan unga nisbatan ham jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Aka ukasiga bo'lgan mehrini qonunni buzish bilan emas, balki to'g'ri yo'l

ko'rsatish orqali ifodalashi lozim. M. Rahmonovning jigariga bunday «yordami» esa faqat og'ir oqibatlarga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari tizimida katta leytenant Komiljon G'iyosiddinov kabi fidoyi, qasamyodiga sodiq, ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, adolat va halollikni hayotiy shior deb bilgan xodimlar ko'p. Ana shunday vijdonli insonlar jamiyatda qonun ustuvorligini va fuqarolarning adolat tantanasiga ishonchini mustahkamlamoqda.

Mazkur voqea barchamiz uchun jiddiy saboq bo'lishi



kerak. Aka degan nom mas'uliyat va o'rnakni anglatadi. Haqiqiy yordam – qonunni chetlab o'tish emas, balki yaqinlarini halollik va to'g'ri hayot yo'lga boshlashdir. Ana shundagina oila mustahkam, jamiyat sog'lom, kelajak esa porloq bo'ladi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



Фахрийлар — фахримиз

КУРАШ МАЙДОНИДАН
МАРДЛАРЧА ЎТИБ...

(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Саидмахмуд ака хизмат фаолиятининг илк даврини катта хаяжон билан эслайди. Гулистон шаҳридаги мавзелардан бирида ўғрилиқ содир бўлади. 19–20 ёшлардаги йигит гумонланувчи сифатида ушланиб, шаҳар ИИБга олиб келинади. Ўша куни навбатчи бўлгани учун жиноятни тергов қилиш ёш ходимга топширилади. Суриштирув жараёнида гумонланувчининг шахсини тасдиқловчи ҳеч қандай ҳужжати йўқлиги маълум бўлади. Шу сабабдан уни вақтинчалик сақлаш ҳибсхонасига жойлаштиришнинг имкони йўқ эди. Ноилоҳ тилхат олиб, уни қўйиб юборишга тўғри келади. Асли тожикистонлик бўлган гумонланувчи эса ўзи туғилиб ўсган Қўрғонтепа туманига қочиб кетади. Саидмахмуд Хўжаназаров уни излаб тоғ оша ўша туманга бориб, ушлаб келади. Маълум бўлишича, гумонланувчи йигит муқаддам судланган бўлиб, маҳаллий туман ИИБда ҳисобда турар экан.

Жиноят олами билан кураш жараёни кишидан қатъиятнинг тақозо этади. Бироқ терговчи ҳам инсон. Унинг қалби ҳам айрим ишлардан ларзага келади. Ана шундай ишлардан бири Саидмахмуд ака Сирдарё вилояти ИИБ Тергов бошқармасининг ўта муҳим ишлар бўйича терговчиси бўлиб ишлаб юрган пайтида рўй берди. Тошкент – Самарқанд йўналишида қирққа яқин йўловчини олиб кетаётган автобус ҳалокатга учради. Кечаси тиркамали юк машинасини қувиб ўтиш чоғида автобус ҳайдовчиси юк машинаси ёнидан қандайдир металл туртиб чиққанини кўрмайди. Натижада улкан темир қисми автобуснинг ён томонидан кириб, деярли уни кесиб ўтади. Натижада 8 йўловчи дунёдан кўз юмади, кўпчилиги жароҳат олади.

– Назоратга олинган жиноий ишни тергов қилиш менга топширилди, – дея хотирлайди истеъфодаги подполковник Саидмахмуд Хўжаназаров. – Ҳодиса жойига борганимда аянчли ҳолатга дуч келдим. Ҳайдовчиларнинг бир

қарашда арзимасдек туюлган хатолари оғир оқибатга олиб келганди. Юк машинаси ҳайдовчиси туртиб чиққан темирга қизил белги қўймаган, қолаверса, юкни бу тарзда ташиш хавфсизлик қоидаларига зид эди. Автобус ҳайдовчиси эса ён масофани сақлаш қоида-риоя этмаганди. Ҳар иккала ҳайдовчи жавобгарликка тортилди.

Саидмахмуд Хўжаназаров кўп йиллик хизмат фаолияти давомида Гулистон ва Янгиер шаҳар ҳамда Мирзаобод ва Гулистон тумани ИИБларида тергов бўлими бошлиғи, катта терговчи лавозимларида ҳам самарали хизмат қилди. 2010 йилда пенсияга чиқди.

Ҳозирда вилоят Ахборот-кутубхона маркази ҳуқуқшуноси бўлиб ишлаётган истеъфодаги подполковник С. Хўжаназаров турмуш ўртоғи билан беш нафар фарзандни вояга етказди. Оз эмас, кўп эмас, 14 нафар набираси бор. У ортида қолган умр йўлидан, эл-юрт тинчлиги учун ҳаётини бағишлаганидан фахрланади.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.

Soha fidoyisi

KICHIK JUSSADAGI KATTA MAS'ULIYAT

Jamiatda ayollarning huquqlari va xavfsizligi masalasi kundan-kunga dolzarblashib borayotgani hamda bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlar tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimni befarq qoldirmaydi.

– Ayollar huquqini himoya qilish, ularning ijtimoiy va ma'naviy xavfsizligini ta'minlash butun jamiyatning mas'uliyatidir, – deydi Namangan viloyati IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, mayor Mohina Nabijonova.



– Xususan, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqning oldini olish, jamiyatda barqarorlik va adolatni qaror toptirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Pop tumanidagi 33-maktabni tamomlagach, avval Namangan yuridik kollejida so'ngra Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tahsil olgan Mohinaning har bir bosqichda to'plagan bilimlari va xizmatdagi tajribalari kelajakdagi faoliyatida asosiy poydevor bo'ldi.

2017-yilda Namangan shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limida ish boshlagan lavhamiz qahramoni o'z faoliyatini xotin-qizlarga qarshi jinoyatlar bilan kurashishga yo'naltirdi. Bu davrda u o'zining yuqori professional qobiliyati, prinsipiialligi va bilimdonligi bilan hamkasblariga namuna bo'ldi.

Mohina jamoatchilik o'rtasida ayollarning huquqlari to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishga harakat qiladi. U har doim jamoatchilikni, davlat organlarini va huquqshunoslarni xotin-qizlar masalalari bo'yicha hamkorlikka chaqiradi.

Mayor M. Nabijonova har bir ishni hal qilishda nafaqat huquqiy yordam ko'rsatadi, balki oilaviy tinchlikni tiklash va xotin-qizlarning xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

U o'zining nozik jussasiga katta mas'uliyatni olib, har bir ishda yuqori va sifatli natija ko'rsatmoqda. Mohina kabi fidoyi mutaxassislar bor ekan, jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilishda katta o'zgarishlar amalga oshirilishi shubhasiz.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Bilarmidingiz?

ASLIDA
TURKIY
SO'ZLAR

Har bir til asosan o'z lug'at boyligi va grammatik qurilishi asosida takomillashib boradi. Xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar ikkinchi tilga kirib boradi. Quyida rus tiliga singib ketgan turkiy so'zlarning ayrimlari keltirib o'tilgan.

Tavar – tovar

Kirpich – kirpich



Boshmoq – boshmak

Qalpoq – kalpak

Ishton – shtani

Tanga – dengi

Bahodir – bogatir

Otuk –

utyug

O'choq –

ochag

Qoratosh –

karandash

Qopqon –

kapkan

Qorovul – karaul

Yasovul – yesaul

Burgut – berkut



Arava – arba

Qovurdoq – kavardak

Yorliq – yarlik

Aralash – yeralash

Baqqol – bakaleya

Qo'lbasti – kolbasa

Zumrad – izumrud



Faces of mastery

THE RHYTHM OF DAILY SERVICE

Captain Khurshid Bayzakov, an officer of the Transport security department, has been serving effectively in the internal affairs bodies since 2016. Currently, he makes a significant contribution to ensuring the safety and tranquility of passengers on «Afrosiyob» high-speed trains. Thanks to his fluency in five languages, he provides high-level service not only to our compatriots but also to foreign tourists, setting an example for his colleagues in making the right decisions in complex situations and helping people from the bottom of his heart. For instance, recently, through his prompt actions, a passenger's valuable belongings left at the station were recovered in a short time and returned to their owner. For captain Bayzakov, the primary source of strength is his close-knit family and children; the support of his loved ones inspires the officer with boundless energy to fulfill his responsible duties with total dedication.



My profession — my pride



MY BEACON IS TRUTH, MY DECISION IS JUSTICE

Lieutenant colonel Dilduza Egamova, senior investigator for especially important cases at the Investigation department of the Samarkand region Internal affairs bureau, is a seasoned professional who has served with dedication in the internal affairs bodies since 2007 and was awarded the medal «For loyal services». Guided by the principle «My beacon is truth, my decision is justice», she deeply understands that a human destiny lies behind every case and pays meticulous attention to the systematic collection of evidence and the legal substantiation of every decision. Beyond conducting investigations, lieutenant colonel Egamova actively contributes to organizing investigative activities at the regional level, providing methodological and practical assistance to subordinate units to enhance their efficiency. Continuing her father's noble profession with honor, she also serves as a member of the women's council of the regional Internal affairs bureau. In this role, she diligently imparts her vast knowledge and experience to young officers, helping them develop essential professional skills. Her career, built on profound legal expertise, patience, and a conscientious approach, has earned her high recognition and respect among her colleagues.

We are against corruption

BAD EXAMPLE — BITTER CONSEQUENCES



While the bond between brothers should ideally be built on mutual support and setting a positive example, attempting to «help» a loved one through illegal acts can lead to devastating consequences. In Tashkent, following the arrest of Sh. R. for extortion, his brother, M. R., contacted the investigator, senior lieutenant Komiljon Ghiyosiddinov. He offered a bribe of \$400 in exchange for changing his brother's «custody» status to a lighter precautionary measure. Despite repeated warnings from the investigator that such actions are criminal and carry severe penalties, M. R. persisted in his attempt. He was eventually caught red-handed during an undercover operation while handing over the money in the investigator's office, resulting in a separate criminal case being opened against him. Senior lieutenant Ghiyosiddinov's loyalty to his oath and his professional integrity serve as a testament to the rule of law and justice within the system. This incident serves as a serious lesson that true brotherly support lies not in bypassing the law, but in guiding loved ones toward honesty and a righteous path.

Targeted prevention

CONFIDENCE IN TOMORROW

In the Denov district of Surkhandarya region, systematic measures are being implemented to support women on probation through a targeted social and preventive approach. Currently, the living conditions and personal challenges of 111 women registered with the District internal affairs bureau's probation department are being closely monitored, with all individuals serving sentences of correctional labor

or restricted freedom successfully integrated into gainful employment. These efforts to prevent recidivism through vocational engagement have yielded significant results: in 2025, 38 women were granted early conditional release, and one individual was reunited with her family following a Presidential pardon. Under the leadership of senior lieutenant Manzura Jurayeva, initiatives to pro-



vide vocational training and entrepreneurial guidance for women are being actively expanded. Such

targeted prevention measures serve as a vital factor not only in reducing crime but also in reintegrating

women into a healthy social environment and enhancing their active participation in society.



Саломатлик сабоқлари

БАКТЕРИЯЛАРГА
ҚАРШИ КУЧЛИ ВОСИТА

Хлорофиллипт эвкалипт баргларида олинадиган табиий дори воситаси бўлиб, бактерияларга, айниқса, стафилококкларга қарши самарали таъсирга эга. Тиббиётда кўпинча унинг спиртли эритма шакли ишлатилади. Шу билан бирга, ёғли эритма, спрей, инъекциялар учун стерил эритма, таблетка кўринишида ҳам тарқалган. Бу маҳсулотнинг тўғри қўлланилиши атиги бир неча кун ичида беморнинг ҳолатини яхшилашга имкон беради.



Яшил рангли ва ўзига хос ҳидли ушбу дори воситаси томоқ оғриғи, ангина, фарингитни даволашда қўлланилиб, яра, кесилиш ва куйишларда терининг шу соҳасини тозалашга ва жароҳатнинг тез битишига ёрдам беради. У томоқ, оғиз бўшлиғи, теридаги инфекцияларни барта- раф этади. Баъзан бу- рун касалликлари – ринит ва синуситни даволашда ҳам ишлатилади. Шунинг- дек, хлорофиллипт оғиз бўшлиғидаги яллиғланиш- ни камайтириб, стоматит ва гингивитдан халос эта- ди. Шунингдек, томоқда- ги оғриқни камайтиради, оғиз соҳасидаги шиллиқ пардани ювиб, тикланиш (регенерация) жараёнла- рини рағбатлантиради ва тезлаштиради.

Мазкур дори воситаси таркибидаги эвкалипт ва мирта экстракти анти- септик таъсирга эга бўлиб,

бактерия ва микробларга қарши самарали курашади. Шунингдек, хлорофиллипт оғриқни қолдириб, вирус- лар ва касаллик қўзғатувчи микроорганизмларнинг кўпайишига йўл қўймай- ди. У нафас йўллари ка- салликлари, ангина ҳамда йирингли ва ўткир тонзил- лит ҳолатларида шифокор томонидан буюрилади. Одатда восита якка ўзи эмас, комплекс даволаш таркибида қўлланилади.

Йўтал ва томоқ оғриғи қийнаганда, бўғизни ча- йиш учун 200 мл илиқ сувга бир чой қошиқ эритма со- линади ва унинг ёрдамида томоқдаги бактериялар ювиб ташланади. Бу миқ- дорни фақат шифокор тавсияси билан ошириш мумкин. Шуни унутмас- лик керакки, тайёрланган суюқликни дарҳол ишла-

тиш лозим, акс ҳолда вақт ўтиши билан унинг анти- септик хусусияти йўқола- ди. Суюқликни асло юта кўрманг. Оғиз чайишни овқатланиб бўлгандан сўнг амалга оширган маъқул, шундан сўнг камида ярим соат суюқлик ёки бошқа нарса истеъмол қилмаслик лозим. Муолажани куни- га ҳеч бўлмаса 4 марта 5 дақиқа давомида ўтка- зиш керак.

Лекин ушбу воситани илк марта ишлатишдан олдин шифокор билан маслаҳатлашиш ёки ал- лергияга текшириб кўриш муҳим. Эвкалиптга ал- лергияси бўлган кишилар ундан фойдаланмагани маъқул.

Умид ҲАБИБУЛЛАЕВ,
отоларинголог-
шифокор.

ТАБИЙ
ТЕТИКЛАШТИРУВЧИ
МАҲСУЛОТ

Инсон организмида холестерин даражаси кўр- саткичи юқори бўлиши юрак-қон томири касал- ликлари юзага келишига олиб келади. Шу боис истеъмолда ёғларнинг сифатига эътиборли бўлиш, имкон қадар органик ёғлардан фойдаланиш жуда муҳим. Айниқса, хантал ёғининг ўрни бўлакча. Унинг таркибида ёғни парчалаш хусусиятига эга бўлган, ёшартирувчи, иммунитетни мустаҳкамловчи, яра- ларни тез тузатувчи хусусиятга эга Е витамини бор.

Хантал уруғидан олинган ушбу ўсимлик ёғи микро ва макро элементлар ҳамда кўплаб витаминларга бой. Оксил, углевод ва ёғ кислоталарини ўз ичи- га олган ушбу табиий маҳсулот юрак учун жуда фойдали, қон айланишини яхшилайдиган, табиий тетиклаштирувчи восита ҳисобланади. Бу турдаги ёғ бактерицид ва қиздирувчи хусусиятга эга бў- либ, шамоллашни даволашда қўл келади. Хантал ёғи асаб тизимини мустаҳкамлаб, стресс ва руҳий тушқунлик ҳолатларида тинчланишга ёрдам бера- ди. У организмни зарарли моддалардан тозалайди, метаболизм ва овқат ҳазм қилишни яхшилайдиган.

Ушбу маҳсулот бўғимлар артритида оғриқларни камайтиради, қон ивишини барқарорлаштириб, яралар тез битишига ёрдам беради, қон томирлари деворларини ва капиллярларни мустаҳкамлайди. Хантал ёғи D витамини сўрилишини осонлаштира- ди, бу эса суяк тўқималарининг ўсиши, ривожла- ниши ва мустаҳкамланишига, соч ва тери ҳолати яхшиланишига хизмат қилади.

Зарина ИБРАГИМОВА,
шифокор.

Здоровье

КАК ЧИСТИТЬ УШИ?



Ушная сера (секрет слухово- го прохода) – это не грязь, а естественный защитный меха- низм организма. Она выполняет важные функции: образует водоотталкивающий защитный барьер в ушном канале, задер- живает пыль, мелкие частицы и микроорганизмы, создает кислую среду, неблагоприятную для бактерий и грибов, снижает риск воспалительных процессов.

Нужно ли чистить их изнутри?

Специалисты подчеркивают: очищать слуховой проход изнутри не требуется. Более того, использование ватных палочек может привести к проталкиванию серы глубже и образованию серной пробки.

Как правильно ухаживать?

Во время принятия душа или ванны достаточно: промыть наружную часть уха теплой водой с мылом или шам- пунем; аккуратно вытереть уши мягким полотенцем.

Такой способ ухода считается самым безопасным и правиль- ным, не нарушающим естественную защиту слухового аппарата.

КЛЮЧ К ЖИЗНЕННОЙ
ЭНЕРГИИ

Правильное дыхание напря- мую влияет на работу сердца, нервной системы и общее само- чувствие человека. Несколько простых дыхательных упражне- ний помогают снизить уровень стресса, улучшить концентрацию и нормализовать сон.

ОСОЗНАННОЕ ДЫХАНИЕ

В течение дня полезно на не- сколько минут сосредоточиться на своем дыхании. Медленный вдох через нос и плавный выдох через рот способствуют расслаблению и снижению внутреннего напряжения.

СИСТЕМА «4-4-6»

Медленно вдохните через нос на четыре счета, задержите дыхание на четыре счета и выдохните через рот на шесть счетов. Повторите упражнение 5-7 раз. Такая техника

успокаивает нервную систему и помогает стабилизировать артери- альное давление.

ДИАФРАГМАЛЬНОЕ ДЫХАНИЕ

Во время вдоха живот слегка под- нимается, при выдохе – опускается. Грудная клетка при этом остается почти неподвижной. Это дыхание улучшает насыщение крови кисло- родом и снижает усталость.

ПЕРЕД СНОМ

Рекомендуется сделать 5-10 мед- ленных глубоких вдохов и выдохов. Это помогает организму перейти в режим отдыха и улучшает качество сна.

Регулярные дыхательные упраж- нения не требуют много времени, но при постоянной практике положи- тельно влияют на общее состояние здоровья и работоспособность.



Преданность делу

ГЕОМЕТРИЯ ДОРОЖНЫХ ЛИНИЙ

В системе органов внутренних дел есть службы, чья работа зачастую остается «за кадром», но именно она формирует безопасную среду. Одно из таких направлений – эксплуатационно-монтажный отдел СБДД. Начальник подразделения ЭМО УБДД УВД Андижанской области лейтенант Шерзодбек Ансари – из тех, кто своим ежедневным трудом способствует созданию порядка на дорогах.

Шерзодбек шел к своей цели осознанно. Уроженец Джалакудукского района, он еще в школе решил связать жизнь со службой в органах правоохраны.

Его профессиональный путь начался в 2014 году в воинской части, где он прошел путь от водителя до начальника отдела. С 2020 года Шерзодбек продолжил службу в системе ОВД.

– Нанесение разметки, монтаж светофоров для стороннего наблюдателя – это лишь технический процесс. Но за каждым знаком, работающим светофором – судьбы людей, – говорит лейтенант Ансари. – В туман или ливень разметка становится для водителя главным ориентиром. Если она стерта, риск ДТП возрастает многократно. Грамотная организация дорожной инфраструктуры позволяет предотвратить до 30% ДТП.

В сезон холодов работа подразделения не прекращается. Для

сотрудников ЭМО капризы погоды – не препятствие, а вызов. Только за текущий год были установлены и отремонтированы 5 светофорных объектов, а состояние дорожных знаков и разметки находятся под контролем.

Обновление разметки требуется ежеквартально, но экстренные выезды случаются чаще: ДТП, неосторожность водителей или интенсивность движения могут привести к ее износу. Задача – обеспечить ее соответствие требованиям.

P.S. Свою редкую и звучную фамилию – Ансари – герой нашего очерка унаследовал от отца-иранца. Это имя, передающееся из поколения в поколение как бесценный семейный артефакт, служит Шерзодбеку постоянным напоминанием о его корнях и уникальной истории рода.

Саминжон ХУСАНЗОДА,
соб. корр.

Андижанская область.

Молодежь – наше будущее

ЭНЕРГИЯ И ЦЕЛЕУСТРЕМЛЕННОСТЬ

Радмир Зарипов, учащийся второго курса Бухарского академического лицея МВД, заметно выделяется среди своих сверстников. Его отличают исключительная требовательность к себе, твердость характера и ответственность.

Радмир является трехкратным чемпионом Узбекистана и бронзовым призером чемпионата Центральной Азии.

– Я занимаюсь легкой атлетикой уже более пяти лет, – рассказывает наш герой. – Мои основные направления – тройной прыжок и прыжки в длину. За плечами немало соревнований. Незабываемым моментом стала «бронза» на чемпионате Азии в городе Даммам (Саудовская Аравия). Помимо спорта, очень люблю математику и физику. Решение сложных задач и занятие этими науками приносят мне истинное удовольствие.

Также он является призером областной олимпиады по физике, а ныне углубленно изучает английский и французский языки, готовясь к получению национальных и международных сертификатов.



Успех Радмира – это и успех его наставников. Первые шаги в спорте он сделал под руководством Рустама и Шахнозы Рузаевых – именно их труд и вера помогли ему найти себя в

большом спорте. Также Радмир с благодарностью отмечает своих учителей физкультуры в лицее – Камолиддина Латипова и Фазилу Исломову, которые помогают ему совершенствовать мастерство.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.

Новые цифровые возможности

Забота о спокойствии махалли

В эти дни в махаллях можно услышать положительные отзывы о мобильном приложении «Мой инспектор». Программа уже начала доказывать свою эффективность, предоставляя гражданам множество удобств и преимуществ.

В махалле Дустлик города Чирчика профилактическую работу ведет лейтенант Хасанбой Файзиев. Несмотря на молодость, он за короткий срок сумел наладить тесный контакт с жителями. Инспектор профилактики проводит обход домов, разъясняя горожанам важность нового приложения. Он помогает жителям устанавливать программу на смартфоны и наглядно демонстрирует, как цифровая связь упрощает взаимодействие с органами правопорядка.



Это новшество позволяет жителям общаться с инспектором онлайн: отправлять фото, аудио- и видеоматериалы, а также оперативно сообщать о любых событиях.

Создание этой платформы, несомненно, стало мощным инструментом обеспечения безопасности. Благодаря ей гражданам могут мгновенно связаться с инспектором профилактики для предотвращения преступлений, при возникновении чрезвычайных ситуаций или для решения других насущных проблем.

Нилуфар ДАВИДОВА.

Ташкентская область.

DUNYO QARIYAPTI

yoxud demografik inqiroz davom etmoqda

Uzoq vaqt davomida dunyo aholisining ko'payish tendensiyasi sayyorada odamlarning haddan tashqari ko'p bo'lishiga olib kelishi mumkin degan fikrlar bor edi. Ammo hozir jarayon mutlaqo boshqacha tus olmoqda. Olimlar dunyoning ayrim qismlarida tug'ilish darajasi pastligidan xavotirda.

O'lim darajasi esa tug'ilishdan ikki baravar ko'p: 1,62 million kishi vafot etdi.

Italiyada ham ahvol og'ir. Kaprakotta shaharchasida XVIII asrda qurilgan bir ko'hna bino peshtoqi-ga «Bolalar bog'chasi» deb yozib

O'zbekistonda tug'ilish sur'ati past emas. Aholi demografik jihatdan juda yosh: aholining **34 foizini 14 yoshga** to'lma-ganlar tashkil etadi. Mamlakatda har **bir ayolga 2,42 ta bola** to'g'ri kelmoqda. Bu degani, har **100 ta ayol o'zidan 242 ta farzand** qoldirmoqda. Bu, albatta, yaxshi ko'rsatkich. Agar bir ayol uchun to'g'ri keladigan ko'rsatkich 2 dan pastga tushsa, bu biz uchun ogohlantiruvchi signal bo'lishi kerak.

O'zbekiston mutlaq demografik o'sish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi hisoblanadi. Masalan, 2010-yildan buyon O'zbekiston aholisi **5,4 milliondan** ziyod kishiga ko'paydi. Shu davrda aholi o'sishi Qozog'istonda **2,4 million**, Tojikistonda **1,97 million**, Qirg'izistonda **1,05 million** va Turkmanistonda **0,91 million** kishini tashkil etdi. Shunday qilib, O'zbekiston so'nggi o'n yil ichida Markaziy Osiyoda mutlaq **aholi o'sishining 46 foizdan** ortig'ini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi 2025-yil 28-avgust holatiga ko'ra, **38 000 000 dan ortiqni** tashkil etdi. O'tgan yili tug'ilish darajasi 2017-yildan beri birinchi marta 3,7 foizga kamaydi. Bunga 2024-yilda oxirgi 10 yil ichida eng kam nikoh qayd etilgani sabab bo'ldi.

Unutmaylik, farzandni ayol dunyoga keltiradi. Bitta ayol ikkita farzand tuqqan taqdirda ham, u aholining ko'payishiga hissa qo'shmayapti, balki aholining kamaymasligini ta'minlayapti, xolos. Chunki ikkita farzand ikkita ota-onaning o'rnini egalaydi, faqat uchinchi farzandgina aholining ko'payishini ta'minlab berishi mumkin.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.

Global demografik o'zgarishlarni taxmin qiluvchi modellarga ko'ra, asr o'rtalariga borib tarixda ilk bor insoniyat soni qisqarishga yuz tutishi mumkin. 2100-yilda esa aholi soni bo'yicha Nigeriya Xitoydan o'tib ketadi, degan taxminlar ham bor.

Tug'ilish darajasining qisqarishi dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Aholi qarib, sog'liqni saqlash va pensiya xarajatlari oshib bormoqda. Shu bilan birga, ishlayotgan va soliq to'layotgan odamlar soni yildan-yilga kamayib bormoqda.

Italiyada tug'uruxonalar yopilyapti; Janubiy Koreyada universitetlar talaba topishga qiynalyapti; Germaniyada esa yuz minglab uylar buzilib, o'rniga parklar qurilgan. Bunga sabab sifatida iqtisodiy omillar, ijtimoiy o'zgarishlar, buzuq axloqiy qadriyatlar, urbanizatsiya va ekologik muammolarni ketirishimiz mumkin.

BMT hisobotlariga ko'ra, bir ayolga 2,1 ta bola to'g'ri kelgandagina aholining o'sishi yuz beradi. Ko'pgina mamlakatlarda tug'ilish koeffitsiyentlari bu ko'rsatkichdan past. Masalan, Rossiyada – 1,4, Ispaniyada – 1,2, Xitoyda – 1. Hindistonda u biroz balandroq – har bir ayolga ikki bola. Bu nafaqat Rossiya va butun Yevropaga, balki ayrim Osiyo mamlakatlariga, jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiyaga ham taalluqlidir.

Xitoyda aholi sonini muvozanatda ushlab turish uchun uzoq yillar oilada bittadan ortiq farzand ko'rish taqiqlangan edi. Hozir bu siyosatdan voz kechilgan, ammo endi kech. Chunki Xitoy aholisi tez keksaymoqda. Yoshlar farzand ko'rishni xohlamayapti. Hozir aholi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni Xitoy emas, Hindiston egalab turibdi.

Afrika mintaqasidagi mamlakatlarda, aksincha, tug'ilish darajasi yuqori. Biroq bu ham, o'z navbatida, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarmoya kiritish, yosh va o'sib borayotgan aholini qo'llab-quvvatlash uchun ish o'rinlarini

yaratish zarurati kabi muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Dunyo bo'yicha tug'ish darajasi eng past ko'rsatkich Janubiy Koreyada. Bu yerda bitta ayolga 0,92 ta bola to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, yuzta ayoldan 92 ta bola qolmoqda. Ularning kamida sakkiztasi umri davomida umuman tug'mayapti, deyish ham mumkin.

Yoshlarni farzand ko'rishga undashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarga qaramay, dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish darajasi pasayishda davom etmoqda. Masalan, 2024-yilda Yaponiyada oxirgi 125 yil ichida rekord darajada kam chaqaloqlar dunyoga keldi – jami 720 988 ta.

qo'yilgan; chunki haqiqatda bu yer bir paytlar yosh bolalar maktabi bo'lgan. Hozir esa undan qariyalari uyi sifatida foydalanishmoqda. 5000 kishi yashagan shaharchada bugungi kunda bor-yo'g'i 800 kishi istiqomat qiladi, aksariyati keksalar.

Har doim barqaror iqtisodiy taraqqiyot drayveri sifatida yoshlar ko'riladi. Yosh avlod iqtisodiyotdagi bo'sh ish o'rinlarini to'ldirib, iqtisodiyotga yangi iste'molchilar sifatida qo'shilib, yalpi ichki mahsulot miqdorini muttasil oshirib boradi. Bu drayverning cho'g'i pasaysa, salbiy oqibatlar uzoq muddatda juda ayanchli bo'ladi.

Ijtimoiy himoya

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bilan manzilli ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni bartaraf etishga e'tibor kuchaydi. Texnik va raqamli texnologiyaar ham ichki ishlar organlarining xalqchil qiyofasini mustahkamladi. Elektron hisob-kitoblar, video kuzatuv, aqlli tizimlar inson omilini kamaytirib, adolatli qarorlar qabul qilinishiga xizmat qilmoqda. Bu esa fuqarolarning sohada qonun ustuvorligi ta'minlanayotaniga bo'lgan ishonchini yanada oshirdi.

Ayniqsa, tanqidiy fikrlarga ochiqlik, o'z ustida ishlash, kadrlar tayyorlash va ma'naviy-ma'ri-

fiy tarbiyaga e'tibor kuchaydi. Xodimlar uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratilishi, ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ularning xizmatga

RAG'BAT VA IMTIYOZLAR
tizimni xalqchil tuzilmaga aylanishida omil bo'lmoqda

bo'lgan munosabati va mas'uliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, o'tgan yilda viloyat IIB xodimlaridan 35 nafari uy-joy bilan ta'minlandi. 25 na-

far xodimga 1 milliard 620 million so'm ssuda berilgan bo'lsa, 10 nafar xodimga 1 milliard 236 million so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, 245 nafar xodimga 371 million so'm miqdorida ijara kompensatsiya pullari to'lab berildi.

Albatta, bunday rag'bat va imtiyozlar ichki ishlar organlarining xalqchil va ishonchli tuzilmaga aylanishida muhim ahamiyat kasb etib, aholi va davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigini mustahkamlamoqda.

Nabi EGAMBERDIYEV,
podpolkovnik.

Samarqand viloyati.

Namangan tomonlarda

XAVFSIZ MUHIT YARATIB

TIZIMLI CHORALAR

Uychi tumanida yo'l infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy xavfsizlik vositalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, «Yangichek» mahallasi hududidan o'tuvchi D-109 «Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on» avtomobil yo'lining 13-kilometrda tezlikni cheklovchi zamonaviy radar o'rnatilib, haydovchilar intizomini oshirishga xizmat qilmoqda. Piyodalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida «Jiydakapa»

maktablar oldida qavariq piyodalar o'tish joylari barpo etildi. Yo'l yoqasida joylashgan 12 ta maktab oldiga sveto-forlar o'rnatilib, piyodalar yo'lakchalari chizildi va yoritildi, 6 ta maktab oldida esa qavariq piyodalar o'tish yo'laklari tashkil etildi.

Bundan tashqari, D-109 yo'lining 12-13-kilometrlar oralig'ida zamonaviy yo'l belgilari o'rnatilib, piyodalar yo'lakchalari tashkil etildi.



mahallasi hududidagi D-105 «Pungon-Namangan-Andijon» avtomobil yo'lining 95-96-kilometrlarida piyodalar o'tish joylari qayta jihozlanib, yoritish chiroqlari va sveto-forlar o'rnatildi.

Shuningdek, D-109 avtomobil yo'lining 16-17-kilometrlarida joylashgan

«Mirzarovot», «Oqtosh», «Islomobod» va «Yangichek» mahallalaridagi chorahalarda tirbandlik va yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida zamonaviy sveto-for qurilmalari o'rnatildi.

MAQSADIMIZ - QONUNIYLIK VA TARTIB



— O'tgan yil davomida bo'linmamiz tomonidan 29 mingdan ortiq fuqaroga identifikatsiya kartalari, 5 mingdan ziyod fuqaroga xorijga chiqish uchun biometrik pasportlar rasmiylashtirildi. Bu aholining davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchi oshib borayotganidan dalolat beradi, — deydi tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, katta

leytenant Shohbozbek Mirzayev.

Yil boshidan buyon tuman hududida xonadonlar, korxona va ta'lim muassasalarida pasport-viza tadbirlari o'tkazilib, 1449 ta qoidabuzarlik holati aniqlandi va qonunchilikka muvofiq ma'muriy choralar ko'rildi. «Spitamen» profilaktik tadbiri doirasida esa qoidabuzarlarga nisbatan 231 million so'mdan ortiq ma'muriy jarima rasmiylashtirildi.

TO'G'RI YO'LDAN KETYAPMIZ

O'tgan yilda muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 23 taga, ishlaymaydigan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni esa 30,8 foizga kamaygan. Bu natijalar profilaktik tadbirlarning samarali amalga oshirilganini, jinoyatchilikning kamayishiga olib kelganini tasdiqlaydi.

— Ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonida sezilarli kamayish kuzatildi. Yoshlar tomonidan sodir etilgan

jinoyatlar 75 tani tashkil etgan bo'lib, bu avvalgi yilga nisbatan 21,9 foizga kamayishni ko'rsatadi. Voyaga yetmaganlar tomoni-

dan sodir etilgan jinoyatlar esa 18 taga, ya'ni 10 foizga pastlagan. Jinoyatlarning kamayishi, asosan, har bir shaxsga bo'lgan individual



yondashuv, profilaktik axborot va xulosa berish orqali amalga oshirildi, — deydi podpolkovnik Bobir Inamov.

2025-yilda tuman IIB huzuridagi tergov bo'linmasi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yil davomida tergov bo'linmasi tomonidan 611 ta ish yuritilgan, shuningdek, 627 ta jinoyat ishi tergov va surishtiruvga olinib, bundan 355 tasi tamomlangan. Ayblov xulosasi va dalolatnomasi bilan tamomlangan ishning soni 260 taga yetgan. Shuningdek, 56 ta ish tomonlarning yarashganligi sababli tamomlandi.

— 385 nafar shaxs sudga yuborilgan,

ulardan 82 nafari JPKning 221-moddasiga asosan ushlangan, 81 kishiga qamoq va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, — deydi tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i, mayor Hayotbek Abdurahimov. — Shu bilan birga, 56 nafar shaxsga garov, 13 nafariga shaxsiy kafillik, 17 nafariga voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga topshirish, 162 nafariga esa munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat ehtiyot chorasi qo'llangan. Bu natijalar tergov bo'linmasi xodimlarining faolligini va jinoyatlarga qarshi kurashishdagi xizmat samaradorligini ko'rsatadi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.



Тиббиёт хизмати

ХОДИМ СОҒЛОМ — ХИЗМАТ БАРДАВОМ

Ички ишлар органлари ходимларининг соғлиги баъзан «ёпиқ мавзу» бўлиб қолаётгандек туюлади гўё. Аммо бугунги кунда бу гаплар эскирди. Чунки ҳар бир ходим соғлиғига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Хоразм вилояти ИИБ Даволаш-профилактика муассасаси Тиббиёт бўлими бошлиғи, подполковник Улуғбек Одилов билан бўлган суҳбатимиз айти шу масалада бўлди.

— Тизимда хизмат қилаётган ходимлар орасида энг кўп учраётган касаллик турлари қайсилар?

— Осойишталик посбонларининг хизмат фаолиятида стресс ҳолатлари тез-тез учраб туради. Албатта бундан масъулиятни ҳис қиладиган, виждонли ходимлар кўпроқ азият чекишади. Шу боис — юрак-қон томир касалликлари, қон босими кўтарилиши, асаб тизими бузилиши, шунингдек сурункали чарчоқ ва уйқу бузилиши ҳолатларидан шикоятлар кўп учрайди.

— Стрессли шароитда фаолият олиб бораётган ходимларга тиббий-психологик ёрдам етарлими?

— Бугунги кунда бу масала энг устувор йўналишлардан бири. Бизда психиатр шифокор ва ИИБ психологлари ҳамкорликда ишлайди. Ходимлар билан яқка тартибда суҳбатлар ўтказилади, тавсиялар берилади. Даволаш-профилактика муассасаси шифохонасида «руҳий энгиллашиш хонаси» ташкил



этилган. У ерда беморлар билан машғулотлар ўтказилади. Руҳий босим ва стресс ҳолатлари дори-дармон билан бирга суҳбат ва психологик қўллаб-қувватлаш орқали ҳам энгиллаштирилади.

— «Ходим касал бўлса ҳам хизматга чиқишига мажбур» деган қараш мавжуд. Бу ҳолат қандай тартибда назорат қилинади?

— Аввал бундай сўзлар айтилган бўлиши мумкин. Биз-

ни вилоятда поликлиника ва 40 ўринли стационар, Тошкент шаҳрида ИИБ Марказий госпитали, Наманган шаҳрида ИИБ госпитали, Навоий, Самарқанд, Қашқадарёда санаторийлар — барчаси ходимларга тиббий хизмат кўрсатмоқда. Ходимлар соғлиғини тиклашлари учун имкониятлар етарли.

— Тиббий кўриклар қай даражада холис ва шаффоф ўтказилади?

— Тиббий кўрик масаласига раҳбарият ҳам жуда жиддий эътибор беради. Қолаверса, бугунги кунда жараён «Е-MED» тизими орқали назорат қилинади. Шу сабабли «кўз юмиш»га ҳожат ҳам, ўрин ҳам йўқ. Ҳаммаси очиқ, шаффоф ва тартибга солинган. Фақат ходимлар ўз вақтида соғлиғидаги муаммолар билан хизмат жойларидаги тиббиёт муассасаларига ўз вақтида мурожаат этиб, тегишли тавсияларга кўра даволансалар айти муддао бўларди. Шунингдек, меҳнат таътили давомида санаторий ва даволаш муассасаларига ҳам бориб, тиббий муолажалар олсалар, соғ-саломат бўлиб юришларига ўзлари сабабчи бўлардилар.

Нилуфар ЖАББОРОВА,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(26 январь — 1 февраль)

Қўй (21.03 — 20.04). Бу ҳафта касб-ҳунар борасида ва молиявий жабҳада сизга омад кулиб боқади. Бироқ ҳар бир ишда бошқарувни ўз қўлингизга олиб, кучли ишонч ва қатъият билан ҳаракат қилинг. Бу даврда ҳис-ҳаяжонга берилмай, имкон қадар босиқлик билан иш юритиш лозим.

Бузоқ (21.04 — 20.05). Ҳафта омадли келади. Ушбу даврнинг иккинчи ярми бизнес, иш муносабатларини йўлга қўйиш учун жуда қулай. Молиявий масалада яхши хабар ёки катта маошли янги лавозимга таклиф олишингиз мумкин.

Эгизаклар (21.05 — 21.06). Ўз устида ишлаш, тажриба орттириш учун қулай давр. Ижод, яратиш ва барпо қилишга қаратилган саъй-ҳаракатлар бу ҳафтада ижобий натижа беради. Ривожланишга тўсқинлик қилаётган ва орқага тортаётганлар билан муносабатни узиш тавсия этилади.

Қисқичбақа (22.06 — 22.07). Мурса қилиш қобилияти ва кучли ички сезиш ҳисси даромадли лойиҳаларда иштирок этиш имкониятини беради. Сиз учун муҳим тавсия: зўр бериб ўз нуқтаи назарингизни, айниқса, ноҳақ эканингизни била туриб, ҳимоя қилишга уринманг.

Арслон (23.07 — 23.08). Иш жойингизда янгиликлар, яъни янги лавозимга ўтиш, жамоа таркибининг ўзгариши, бошқа ишга ўтиш каби ҳолатлар кузатилиши мумкин. Ташаббускорлик кўрсатиб, олдинга илдамлашда давом этинг.

Паризод (24.08 — 23.09). Бу даврда иш фаолияти олд сафдан ўрин эгаллайди. Раҳбарият томонидан сизга келажакда касбий ўсишингизга таъсир кўрсатиши мумкин бўлган мураккаб вазифа топширилади. Шу сабабдан имкон қадар диққатли, ҳушёр бўлишга ҳаракат қилинг.

Тарози (24.09 — 23.10). Тахминан ҳафта ўрталарида иш ва оилада муайян муваффақиятлар кузатилиши кутилмоқда. Яқинларингиз билан мулоқот қилишда хушмуомалиликни унутманг, акс ҳолда, ноўрин тортишувлар келиб чиқади. Салбий ҳиссиётлар саломатликка акс таъсир кўрсатиши мумкин.

Чаён (24.10 — 22.11). Ҳаётнинг деярли барча жабҳаларида вазиятлар сизга қарши ўйин ўйнаши мумкин. Асл истажингиз ўзингизга аниқ маълум бўлмагунча, мақсад сари интилиш бефойда. Одамлар билан муносабат қилиш борасидаги баъзи қарашларингизни қайта кўриб чиқинг. Ўзингизни қўлга олиб, оғирроқ бўлишга ҳаракат қилинг.

Ўқотар (23.11 — 21.12). Бу даврда ҳам-касблар билан мунозаралар чоғида низога бормаган маъқул. Бу борада ён бериш кейинчалик ўз ижобий натижасини беради. Яқин инсонлар билан янада диққатли муносабатда бўлинг, эҳтимол, уларга ёрдамингиз керакдир.

Тоғ эчкиси (22.12 — 20.01). Иш жойингизда рақобатга дуч келишингиз мумкин. Имкон қадар можаро ва келишмовчиликлардан йироқ туринг. Келиб тушадиган барча таклифларни мутахассислар билан маслаҳатлашиб иш кўриш тавсия этилади.

Қовға (21.01 — 19.02). Ҳафта бошида энг муҳим ишларни йўлга қўйиш имконияти мавжуд бўлиб, осонлик билан ҳар қандай ишнинг уддасидан чиқа оласиз. Чоршанба ва пайшанба кунлари яхшигина даромад олишингиз мумкин. Фаол ҳаракатингиз натижасида сизга фойдали келишув таклиф этилади.

Балиқ (20.02 — 20.03). Душанба ва сешанба кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, шу кунларда сармоiali таклифлар олишингиз мумкин. Бу ҳафта фаол ҳаракатлар даври бўлиб, келгуси муваффақиятларга эришиш ва фаолиятда ёрдам берувчи фойдали алоқаларни ўрнатиш учун яхши имкониятдир.



Bir jinoyat tarixi

Saidbek Ahmadov (ism-shariflar o'zgartirildi) tashqi tomondan qaraganda, boshqalardan farq qilmaydigan fuqaro edi. Uning ham oilasi, kundalik tashvishlari, kelajakka bog'lagan rejalari bor edi. Ammo bir voqea, aniqrog'i, bir xabar uning butun hayot yo'lini keskin burib yubordi.

2025-yil 10-aprel kuni u shar'iy nikoh asosida birga yashab kelgan turmush o'rtog'i Sayyora Salimovaning boshqa bir fuqaro bilan ishqiy munosabatda ekani haqida ma'lumot oldi. Bu xabar uni qattiq ruhiy zarbaga soldi. Har qanday inson bunday holatda alam va g'azabni his qilishi tabiiy. Lekin hissiyot insonni boshqarmasligi, aksincha, inson o'z hissiyotini boshqarishi kerak. Afsuski, Saidbek bu mezonni buzdi. U vaziyatni tinch yo'l bilan hal qilish, oilaviy muammoni muloqot orqali yoki qonun doirasida hal etish o'rniga, shantaj yo'lini tanladi. Turmush o'rtog'idan behayo foto va videotasvirlarni internetda tarqatmaslik evaziga pul talab qildi. Bu esa nafaqat axloqqa zid, balki jinoyat qonunchiligi nuqtayi nazaridan ham og'ir huquqbuzarlik hisoblanadi.

Insonning shaxsiy hayoti daxlsizdir. Suratlar, videolari, shaxsiy ma'lumotlari uning rozilgisiz tarqatilishi mumkin emas. Bunday

Oilaviy munosabatlarda yuzaga kelgan nizolar aql o'rniga hissiyot bilan hal etilganda, ular nafaqat ikki inson taqdiri, balki butun jamiyatning axloqiy muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shahrixon tuman sudida ko'rilgan navbatdagi ish shu haqiqatni yana bir bor tasdiqladi.



harakatlar orqali pul undirish esa tovlamachilik deb baholanadi. Saidbek aynan shu jinoyat yo'liga kirdi.

Tergov materiallariga ko'ra, u Sayyora Salimovadan 5 ming AQSH dollari talab qilgan. 2025-yil 11-aprel kuni esa mazkur mablag'dan 900 dollar va 1 million 300 ming so'mni olgan paytida huquqni muhofaza qiluvchi organ-

lar xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Shu zahotiyoq uning qilmishlari fosh etildi.

Mazkur holat jinoyat ishlari bo'yicha Shahrixon tuman sudida atroflicha ko'rib chiqildi. Sud tergov dalillarini, guvohlar ko'rsatmalarini va ayblanuvchining harakatlarini baholab, Saidbek Ahmadovni Jinoyat kodeksining

tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topdi. Unga nisbatan 4 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. Endi u faqat ish joyiga borish va qaytish uchungi-na harakatlanishi mumkin, qolgan vaqtda esa uyidan chiqishi taqiqlanadi. Bu hukm orqali sud faqat bir insonni jazolamadi. U jamiyatga ochiq signal yubordi: shaxsiy adovatni internet orqali tahdidga, shantajga aylantirish kechirib bo'lmas jinoyat ekanligini uqtirdi.

Bu ish barchamiz uchun saboq bo'lishi kerak: internet orqali tahdid qilish, shaxsiy ma'lumotlarni tarqatish, odamni sharmanda qilish bu so'z erkinligi emas, balki shaxsga qarshi jinoyatdir. Qonun esa bunday qilmishlarga nisbatan doim mustahkam va murosasiz bo'lib qoladi.

Zarifjon RAHIMOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Shahrixon tuman sudining
raisi.

Andijon viloyati.

Ogoh bo'ling: kiberfiribgar!

Ulardan eng ko'p tarqalgani bank plastik kartalaridan pulni o'marish hamda arzon narxga uni sotaman, buni sotaman, degan yolg'on xabar tarqatish sezilarli darajada oshmoqda.

Shuningdek, shaxslarning mobil qurilmalarini hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi akkaunt yoki kanallarini zararli dastur yuborish yo'li bilan bloklab qo'yish, ma'lumotlarini o'chirib yuborish, o'zgartirish yoki olib qo'yish bilan qo'rqitib, pul yoki boshqa moddiy manfaatdorlik talab qilish holatlari ro'y bermoqda. Jumladan, kibermakonda shaxslarning fotosurati, ovozi va boshqa biometrik ma'lumotlarini maxsus dasturlar yordamida soxtalashtirish holatlari ham uchrab turibdi. Eng achinarlisi, o'smir yoshlar ana shunday jinoyatlarga ko'p qo'l urayotganidir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bunday jinoyatchilar aniqlanib, tegishli jazo choralar ko'rilmoqda. Aholi orasida kibermadaniyatni yuksaltirish borasida oyliklar, turli profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinayotganiga

ARZONNING SHO'RVASI TATIMAS

Global internet tarmog'i rivojlangani sari uning keng imkoniyatlari insoniyat uchun nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki xavf-xatar o'chog'iga aylanib borayotgani, firibgarlikning yangidan-yangi turlari paydo bo'layotgani ham bor gap.



qaramay, firibgarlarning tuzog'iga tushayotgan fuqarolar hamon uchramoqda.

Anora (ism-shariflar o'zgartirildi) ijtimoiy tarmoqlarda ancha faol. Chunki uyda ko'pincha yolg'iz, eri ishda bo'ladi. U turli akkauntlar hamda ijtimoiy tarmoqlarni titkilab, qiziqarli videolavhalar tomosha qilar yoki matnlarni o'qib, vaqtini shu tarzda o'tkazardi. Bir kuni noma'lum shaxs Instagram ijtimoiy tarmog'ida dizayner bo'lib ishlashini va «Sh. Muhammedova» nomidan ochilgan qalbaki

akkaunt orqali «Siz o'yinda ishtirok etib, 2 million so'm pul yutug'iga ega bo'ldingiz, mazkur pulni olish uchun plastik kartochka kod raqamlarini SMS orqali yuborsangiz, yutuqni kartangizga tashlab beramiz», deya va'da qiladi. O'shanda Anora hech kim bilan maslahatlashmasdan, aytilgan ishni bajaradi. Natijada plastik kartasidagi 1 million 180 ming so'm pullari havoga uchib ketadi.

Botirbek ishonuvchan va yana pul tejashni yaxshi

ko'radi, chiqimni esa yoq-tirmaydi. Xotinining telefoni anchadan beri buzuv, ekrani ko'rsatmasdi. Shu bois ro'zg'oridan orttirib, telefon olib beraman, deb yurgan edi. Dam olish kuni «Instagram» ijtimoiy tarmog'idan. «Arzon telefonlar sotiladi» degan e'lonni o'qib qoldi. Ulardan biri xuddi o'zinikiga o'xshash ekan. Narxini o'qib, oltin topgandek xursand bo'ldi va surishtirib o'tirmasdan, aytilgan summani tashlab berdi. Ammo aldanib qoldi.

Xuddi shunday yana bir fuqaro o'zining bank kartasidagi 1 million 400 ming so'm pullarini noma'lum shaxs tomonidan o'zlashtirilgani haqida ichki ishlar organlariga murojaat qilgan. Ma'lum bo'lishicha, noma'lum shaxs «Notcoin» sotishini va uni qiziqitirib, to'lovni oldindan amalga oshirishi kerakligini aytgan. Shu tarzda u summa-

ni o'tkazgan. Pul tushishi bilan haligi shaxs yozishmalarini o'chirib yuborgan.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Barchasida soddadillikmi, ishonuvchanlik dey-mizmi, xullas, kiberfiribgarlar odamlarga yoqadigan so'zlarni gapirishadi. Ularning eng yoqimlisi «arzon» so'zi bo'lsa kerak. Axir bejiz arzonning sho'rvasi tatimaydi, deyilmagan. Firibgarlar ham osoyishtalik posbonlari olib borayotgan tezkor-qidiruv tadbirlarida bir kuni siri fosh bo'lib, qo'lga tushmoqda. Ammo o'rtadagi ovoragarchilig-u asabbuzarliklar inson umriga salbiy ta'sir ko'rsatmay qo'ymayapti.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, soxta havolalarga aldanib qolmaslik va shaxsiy ma'lumotlarni begona foydalanuvchilarga taqdim etmaslik kerak. Qolaversa, hech qachon arzon narsaga uchmaslik lozim. Zero, uning qadri ham arzon bo'ladi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.



Munosabat

YAQIN ISTIQBOLDAGI
VAZIFALARyurtimiz taraqqiyotini, xalqimizning tinch va
farovon hayotini ta'minlashga xizmat qiladi

Sifatli yo'llar iqtisodiyotimizning kamida 2 foiz o'sishiga turtki beradi. Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida avtomobil yo'llarining sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish bo'yicha besh yillik dastur amalga oshirilishi belgilandi. E'tiborli jihati shundaki, endilikda yo'llarni loyihalashtirishda aholining fikri, transport qatnovining atrof-muhitga ta'sirini inobatga olish, piyodalar uchun «to'siqsiz» muhit yaratish bo'yicha qat'iy talablar qonun darajasida mustahkamlanadi.

Murojaatnomada shaharlarimizdagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirayotgani, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu bois dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etilishi, katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklaniishi, bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o'rnatish choralarini ko'rilishi belgilandi. Buning uchun alohida jamg'arma tashkil qilinib, eski mashinalarini almashtirish niyati-

da bo'lgan fuqarolarga avtokredit foizining bir qismi qoplab berilishi, filtr o'rnatib, zararni kamaytirishga tayyor bo'lgan haydovchilar uchun xarajatlarining bir qismi bo'yicha subsidiya ajratilishi muhim voqelik bo'ldi.

Shuningdek, kelgusida poytaxt va yirik shaharlarda avtobus va taksilar uchun maxsus yo'laklar ko'paytiriladi. Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida transport harakatini intellektual svetoforlar orqali boshqarish tizimi joriy etiladi. Elektromobilda taksi xizmati ko'rsatadigan fuqarolarga qator imtiyozlar beriladi. Asosiysi, bu ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilsa, poytaxt, viloyat markazlari va yirik shaharlar faqat ekotransportlar harakatlanadigan hududlarga aylanadi.

O'ylaymizki, transport oqimini raqamli va aqlli tizimlar orqali boshqarish tirbandliklarni kamaytiradi, yoqilg'i sarfini tejaydi, atrof-muhitga salbiy ta'sirini qisqartiradi. Samarali boshqaruv shahar yo'l tarmog'idan oqilona foydalanishga hamda harakat xavfsizligini oshirishga imkon yaratadi.

Murodjon XADJAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi
universiteti o'qituvchisi,
iste'fodagi podpolkovnik.

Karantin xizmati

MO'MAY DAROMAD
ILINJIDA

Xorazm viloyati IIB JXX, Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'linmasi Veterinariya hamda chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi mas'ul xodimlari hamkorligida Urganch shahar va Hazorasp tumani markaziy dehqon bozorlarida reydt tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirlar davomida savdo shoxbchalarida tibbiy ko'rikdan o'tmagan holda maxsus kiyimda savdo qilmayotgan sotuvchilar aniqlanib ogohlantirildi. Noma'lum sharoitlarda tayyorlangan, sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sotayotganlarga nisbatan qonuniy choralar ko'ridi.

Jumladan, Urganch shahar markaziy dehqon bozorida o'tkazilgan tadbirda 138 kg go'sht va go'sht mahsulotlari, 80 kg parranda go'shti, 350 l sut va sut mahsulotlari, 70 kg baliq, 1752 dona tuxum, 210 kg tuzlama va 24 kg noma'lum sharoitda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotuvdan olinib, belgilangan tartibda yo'q qilindi.

Tadbir davomida bozorda go'sht va go'sht mahsulotlari bilan savdo qiluvchi fuqaro Mahmud Sobirovga tegishli bo'lgan go'sht do'koni ko'zdan kechirilganida, sotish uchun mo'ljallangan kelib chiqishi noma'lum bo'lgan 120 kg go'sht mahsuloti aniqlandi. Shu singari 1984-yilda tug'ulgan fuqaro G'ulomjon Xajiyevga tegishli go'sht do'konida esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan 370 kg go'sht mahsuloti borligi aniqlanib, iste'molga yaroqlilik darajasini aniqlash maqsadida Urganch shahar Hayvonlar kasallik-

lari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markaziga topshirildi.

O'tkazilgan tadbirlar davomida veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilmagan 18 nafar fuqaroga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Hazorasp tumani dehqon bozorida go'sht va go'sht mahsulotlari bilan savdo qiluvchi fuqarolardan iste'molga yaroqsiz 76 kg qiyma, 23 kg qoramol ichak-chavoqlari, 27 kg parranda go'shti, 33 kg tuzlama va 16 kg noma'lum sharoitda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotuvdan olinib, belgilangan tartibda yo'q qilindi. Shuningdek, 347 kg go'sht mahsuloti iste'molga yaroqlilik darajasini aniqlash maqsadida tuman Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markaziga yuborildi.

El sog'lig'ini o'ylamasdan mo'may daromad ilinjida sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yashirincha sotib boylik orttirishga urinayotgan, nafsini jilovlayolmagan bunday badnafs kimsalar faoliyati doimo nazoratda. Xodimlarimiz tomonidan ularga nisbatan keskin choralar ko'rilmogda.

Jasur VAFAYEV,
mayor.

Xorazm viloyati.



Og'riqli nuqtalar

Seriallar eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo'lib qoldi. Ilgari xorij seriallari mentalitetimizga, milliy ma'naviyatimizga to'g'ri kelmaydi, deb bong urardik. Bunga javoban, ayrim xorijiy seriallar «qay-chilandi», ba'zilar to'lig'icha efirdan olib tashlandi. Go'yoki shu bilan muammoga vaqtinchalik yechim topildi.

Kamina seriallar ishqibozi emas. Shuning uchun bu mavzudagi fikrlarimni «chuqurroq» joydan boshlamoqchiman. «Serial» so'zining ma'nosi aslida lotinchadan olingan inglizcha so'z bo'lib «davomiylik» degan ma'noni anglatar ekan. Ona tilimizning «Izohli lug'at»i III jildida: «Ko'p seriyali, ko'p qismli, davomli film (ko'pincha uncha talabchan bo'lmagan tomoshabinlarga mo'ljallanadi, shuning uchun badiiy jihati pastroq bo'ladi)», deya izoh beriladi.

Endi, o'ylab ko'ring, talabchan bo'lmagan tomoshabin kim, badiiy jihati pastroqligi nima bilan izohlanadi, degan savol tug'iladi. O'ylab ko'rganmisiz, 50–60 qismdan iborat serialni boshidan-oxirigacha ko'rib, barcha voqea-hodisalarini ko'z oldingizda gavdalanitira olasizmi? Agar izohli lug'atimizdagi «serial»ga izoh-tushuncha shunday bo'lsa, bunday serialning kimga keragi bor?

Yaqinda tanishlarimizdan biri ma'rakada o'tirganimizda «hozir serial boshlanadi», deya izdihomni tark etdi. Nima maqsadda serial paytida bu ma'rakaga kelganligi sababi negadir tushunarsiz holdir.

O'zbek kinochiligidagi ilgari ham bugun e'tiborimizda turgan bir

SAVIYASI AYOZ SERIALLAR

qator «videofilm», deb atalmish asarlar mavjud. Masalan, o'tgan asrning saksoninchi yillarida yaratilgan «Girdob», «Diyonat», «Bobur» kabi videofilmlar hamon o'rta va keksa avlod vakillari e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Nega ularni qayta namoyish etish mumkin emas? To'g'ri, «retro» usuli va uslubi asosida juda ko'p-

lab «avvalgi» filmlarimiz namoyish etilmoqda.

Filmlarimizda birinchi galda madaniy, ma'naviy, eng muhimi, tarixiy muammolarimiz o'z ifodasini topishi kerak. Bugungi muammolarimiz nimalardan iborat? Bu – ishsizlik, ma'naviy qashshoqlik, o'zligini taniyolmaslik muammasidir! Demak, bundan hech bir



Seriallar haqida gapirish, har bitta kinoasar haqida fikr bildirish mavridi emas, deb o'ylayman. Lekin «Tohir va Zuhra», «Mahallada duv-duv gap», «Suyunchi», «Yor-yor», «O'tkan kunlar» kabi durdona filmlarimizdan o'rin olgan o'ziga xos ibora va atamalarimizni negadir bugun adabiy tilimizdan chetga surib qo'ymoqdamiz.

millatdoshimiz yoki o'zbekistonlik fuqaro o'zini chetga ololmaydi!

Mamlakatimiz rahbari yurtimizdagi ijtimoiy muammolarni hal etishning bir qator yo'l-yo'riqlarini – qonuniy yo'nalishlarini o'z imzosi bilan tasdiqlangan bir qator yuridik hujjatlarda ko'rsatib berdi. Yurtimizning ayrim hududlari bilan bog'liq ijtimoiy muammolar bugungi kunda umumdavlat miqyosidagi muammo sifatida hal etilmoqda. Uning ijrosini butun mamlakat ko'rib-bilib turibdi. Nega mana shu muammolarni «serialshunos» kinochilarimiz ekranlarga chiqarishni xohlashmaydi?

Bugungi seriallar o'zining maqsad va mohiyati bilan jiddiy, o'ylovchan, mulohazali tomoshabinlar talabiga javob beradi, deb o'ylaysizmi? Birinchidan, jiddiy tomoshabin hech qachon 50–60 qismdan iborat serialni har kuni kuzatib bormaydi! Bundan tashqari, ilgariidek 3–4 qismli serial yaratishni yo'lga qo'yishni taklif etgan bo'lardim. Ana shunda kechagi serialdagi voqealar bugungi serial tomoshabinini xayolidan ko'tarilib ketmasdi! Qisqa seriyali filmlar namoyishini yo'lga qo'yishimiz kerak. Uzoq davom etadigan seriallar esa hech bir tomoshabin didi va talabiga mos emas! Bunday filmlar faqat bekorchilar uchun yaratilishi va namoyish etilishi mumkin.

Seriallarimizda e'tiborimizga havola etilayotgan mavzular ham hammamizni o'ylantirishi kerak! Nega sayoq ayol, tarbiyasi bo'shashib ketgan qiz hayoti bunday kinokartinalardan o'rin olishi kerak? Holbuki, yengiltabiat, tarbiyasi sust bo'lgan yoshlar, ayrim erkaklarning hayoti bilan bog'liq hayotiy lavhalar hech qachon milliy kinomizning yuzi – yo'nalishini belgilamasligi kerak.

Jahongir TO'XTASINOV.

Namangan viloyati.

Qilmish — qidirmish

«TUNGI SAYOHAT»NING AYANCHLI YAKUNI

Xalqimizda «Mehmon otangdek ulug'» degan naql bor. Ammo «tuz yegan joyiga tupurgan» kimsalar mehmonlik sharafiga dog' tushiradi. Ishonch – eng nozik omonat. Ushbu omonatga xiyonat qilib, o'zganing mulkiga ko'z olaytirish insof mezonlariga ham, qonun-qoidalarga ham ziddir. Har qanday «nonko'rlik» esa ertami-kechmi qonun oldida javob berishni talab qiladi.

Buxoroyi sharifdan poytaxtga rizq izlab kelgan Dilshod (ism-shariflar o'zgartirildi)ning shaharga joylashib olishi qiyin kechmadi. Sababi, bu yerda uning mahalladoshi To'liqin bor edi. To'liqin na faqat uyining to'ridan joy berdi, balki topganini u bilan baham ko'rdi. Hatto Dilshodning qiynalganini ko'rib, cho'ntagiga yo'lkira va yeb-ichishi uchun pul ham solib qo'yardi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, Dilshod ko'rsatilgan beminnat g'amxo'rlik va insoniylikning qadriga yetmadi.

Kuz oylarining salqin kunlaridan biri, tungi soat taxminan uchlar edi. Hamma shirin uyquda. Ammo spirtli ichimlik ta'sirida bo'lgan Dilshodning ko'ziga sherigining shimiga osilgan avtomobil

pulti ko'rindi. Ichidagi shayton vasvasasi uni tinch qo'ymadi. Sherigining uxlab yotganidan foydalanib, pult va kalitni o'g'irladi-da, pastga tushdi.

Avtoturargohda turgan, mahalladoshining kredit asosida sotib olgan «Gentra» rusumli avtomashinasini ruxsatsiz haydab qochdi. Mast holda rul boshqargan Dilshodning «sayohati» uzoqqa cho'zilmadi. Chilonzor tumanidagi «Bunyodkor» ko'chasida u yo'l harakati xavfsizligi inspektorlari tomonidan to'xtatildi. Hujjatlar yo'q, haydovchi esa mast... Natijada mashina jarima maydonchasiga yo'l oldi.

Ertalab uyg'olib, mashinasi va kaliti yo'qligini ko'rgan To'liqinning ahvolini tasavvur qilish qiyin emas. U darhol «102»ga xabar berdi. Ko'p o'tmay, «mehmon»ning qilmishlari fosh bo'ldi.



Sud majlisida Dilshod Niyozov o'z aybiga iqror bo'ldi, pushaymonligini bildirdi. Garchi jabrlanuvchi uni kechirganini va da'vosi yo'qligini aytgan bo'lsa-da, u qonun oldida javob berishi kerak. Bu Dilshodning birinchi jinoyati emas edi – u muqaddam ham sudlanib, unga nisbatan axloq tuzatish ishlari jazosi qo'llanilgan.

Sud hukmiga ko'ra, Dilshod Niyozovga o'talmagan jazo muddatini qo'shish orqali muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Endi u qilgan qilmishi va boy berilgan ishonch haqida panjara

ortida mulohaza yuritadigan bo'ldi. Bu voqea barchamizga xulosa bo'lishi kerak: birovning ishonchi – eng katta omonat. Unga xiyonat qilish esa hech qachon jazosiz qolmaydi.

Bobur JUMABOYEV,
katta leytenant.

Toshkent shahri.

Muhim tadbir

AHOLINI RO'YXATGA OLISH: U NIMA UCHUN ZARUR?

Aholini ro'yxatga olish – bu faqat statistik tadbir emas, balki mamlakatning kelajagini rejalashtirish, jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladigan muhim jarayondir. Yangi O'zbekistonda ushbu tadbirning o'tkazilishi davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

ISTIQBOLLI STRATEGIK TADBIR

O'zbekiston mustaqillik-ka erishgandan keyin uzoq yillar davomida aholini to'liq milliy ro'yxatga olish o'tkazilmadi. Asosan joriy statistik hisob-kitoblar va reyestrlar asosida aholi soni baholab kelindi. 2025-yil 19-sentabrda «O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida»gi Prezident farmoni imzolandi. Unda mamlakatda aholi va qishloq xo'jaligi bo'yicha keng qamrovli statistik ma'lumotlar olish maqsadida 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish belgilandi.

RO'YXATGA OLISH TARIXI

Tarixiy manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi III ming yil-

likda qadimgi Misrda aholi va mulk hisobini yuritish amaliyoti mavjud bo'lgan. Bu asosan soliq yig'ish va davlat ishlarini tashkil etish maqsadida o'tkazilgan. Shuningdek, qadimgi Rimda miloddan avvalgi VI asrda «syenz» deb atalgan aholini hisobga olish tizimi joriy etilgan. Rim syenzi aholining soni, mulki va ijtimoiy maqomini aniqlashga xizmat qilgan. Bu tajriba keyinchalik ko'plab davlatlar uchun namuna bo'lgan.

ravishda amalga oshirilgan va hokimiyat tarmoqlarida va-killikni adolatli taqsimlashga asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish ilk bor 1897-yilda o'tkazilgan. Keyinchalik sobiq Ittifoq davrida, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda ro'yxatga olish tadbirlari amalga oshirilgan.

oshadi, qarorlar taxminlariga emas, aniq raqamlarga asoslanadi. Ijtimoiy adolat ta'minlanadi. Maktablar, shifoxonalar, bolalar bog'chalari va boshqa obyektlar aholi ehtiyojiga mos ravishda joylashtiriladi. Iqtisodiy rejalashtirish yaxshilanadi. Investitsiya, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari uchun mehnat resurslari to'g'ri his-

larga tayyorgarlik kuchayadi. Qolaversa, xalqaro reyting va hisobotlarda ishonchli ma'lumotlar ta'minlanadi.

Aholini ro'yxatga olishning amaliy samarasi rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol ko'rinadi. Masalan, Kanada aholini ro'yxatga olish natijalari asosida ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari joylashuvi qayta ko'rib chiqilgan. Ayrim hududlarda maktab va shifoxonalar yetishmasligi aniqlanib, davlat mablag'lari aynan shu yo'nalishlarga yo'naltirilgan.

Yaponiya tajribasi esa aholining qarish jarayonini aniq hisob-kitob asosida boshqarish imkonini berdi. Ro'yxatga olish natijalariga tayanilgan holda, keksalar uchun ijtimoiy xizmatlar, tib-



“ AYNI KUNLARDA AHOLINI RO'YXATGA OLISH:

- ONLAYN VA OFLAYN SHAKLLARDA;
- SHAXSIY MA'LUMOTLAR MAXFIYLIGI TO'LIQ TA'MINLANGAN HOLDA;
- BMT VA XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR TAVSIYALARIGA MUVOFIQ;
- INSON OMILINI KAMAYTIRISH VA XATOLARNI QISQARTIRISH MAQSADIDA RAQAMLASHTIRILGAN USULLARDA AMALGA OSHIRILMOQDA.

Zamonaviy dunyodagi barcha aholini qamrab olgan ilk milliy aholini ro'yxatga olish 1790-yilda AQSHda o'tkazilgan. Bu ro'yxatga olish mamlakat Konstitutsiyasi talabiga muvofiq

AHAMIYATI NIMADA?

Aholini ro'yxatga olish natijalari davlat va jamiyat uchun qator ijobiy samaralarni beradi. Xususan, davlat boshqaruvi samaradorligi

oblab chiqiladi. Tabiiy ofatlar yoki epidemiyalar paytida aholini muhofaza qilish choralari samarali tashkil etish maqsadida favqulodda holat-

biy muassasalar va infratuzilma kengaytirildi. Shu bilan birga, mehnat bozorida yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj oldindan prognoz qilindi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.



Gazetamizning elektron variantini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Shuhrat RO'ZIYEV
Yuliya KIM

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 148.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
46560 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.